



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 6

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'xyatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'apor QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV
Karimova ZULFIZAR

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **L.M. Oaraxanova, M.N. Aburazzoqova**
Qizlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor – uzluksiz ta'limning har boshqichida muhimdir
- 8 **M.G. Boratova, Sh. O. Mixammedov**
«Tabiiy fanlar» – (science)ni o'qitishda ekologik ta'lim-tarbiya uzluksizligi va izchilligini ta'minlash masalalari
- 13 **S.Z. Rashidova**
Tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitish orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish
- 17 **M.P. Djumaniyazova**
Tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmlari
- 21 **D.O. Raxmonova**
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ta'lim jarayonida sog'lom tumush tarzini rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning pedagogik jihatlari
- 25 **J.A. Ro'zimatov**
Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda loyiha ishlaridan foydalanish va unga qiziqtirish masalalari
- 29 **B.S. Ernarzov**
Integratsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda kompetent yondashuv asosida tadqiqotchilik kompeten-siyalarini rivojlantirish
- 34 **D.L. Alibekov**
Shaxs ongida gender madaniyatini rivojlantirishning hozirgi zamon tendensiyalari
- 39 **Sh. B. Xasanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida xalqaro tajribalardan foydalanish
- 44 **O.A. Abdiveva**
Ona tili va o'qish savodxonligini darslarda 4K modelida kreativlik kompetentligini shakllantirish
- 48 **P.X. Djuraev, K.A. Karimova**
Преемственность в непрерывном образовательном пространстве
- 52 **A.X. Maxmudov**
Коллаборативные технологии повышения ответственности педагогов и родителей в воспитании детей

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 56 **B. Abdurahitov**
Akademik litseylarda biologiya laboratoriyalarining mavjud holati tahlili
- 61 **Sh. O. Qalandarova**
O'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etishda Google Classroom platformasining imkoniyati

MA'NAVIY TARBIYA

- 65 **A.J. Kamalov**
Darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish usuli
- 69 **Di. K. Fazilov**
Bolani ilk yoshidan boshlab tejamkorlik va iqtisodiy trbiyaga o'rgatishda oilaviy qadriyatlarning o'rni
- 72 **N.R. Botirova**
Me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda Vatan tuyg'usini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asosi
- 76 **D.F. Shadibekova**
Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarining tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda tafakkur va ongning o'zaro bog'liqlik mohiyati
- 80 **J. Begjanov**
Oliy o'quv yurti talabalarining estetik tarbiyalashda milliy kulolchilik an'analar vositalaridan o'ziga xos xususiyatlari
- 83 **D.A. Norbutayeva**
O'quvchilarning badiit-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 87 **A.A. Abdurashidov**
Ta'lim jarayonida talabalarda tadbirkorlik sohasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari
- 91 **D.M. Elmuratova**
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash komponentlari

CHET TILLARINI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH DAVR TALABIDIR

- 95 **Z. Karimova**
Обучение иностранным языкам взрослых: методы, формы и технологии

XORIJI TA'LIM

- 99 **A.H. Novikov, A.C. Nefedova, H.M. Sergeevna**
Ценностно-смысловые установки в организации научно-исследовательской и проектной деятельности обучающихся средних школ
- 104 **B.M. Xusvaqtov**
Игровое моделирование как эффективный механизм подготовки обучающихся к будущей профессиональной деятельности
- 108 **Sh. R. Temirova**
Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish



QIZLAR TA'LIM-TARBIYASIGA E'TIBOR – UZLUKSIZ TA'LIMNING HAR BOSQICHIDA MUHIMDIR

L.M. QARAXANOVA,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI
bo'lim mudiri,
p.f.d (DSc), katta ilmiy xodim,
M.M.ABDURAZOQOVA,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI,
1-bosqich tayanch doktoranti

Qizlar tarbiyasi har bir onaning, har bir ilmli va ma'rifatli ayolni oliy maqsadlaridan biri hamda burchi va vazifasidir. O'tmishga nazar tashlasak, onalarimiz qizlarni tarbiyalashdek go'zal va ulug' vazifalarni bajargan va ular mana shunday vazifalari bilan jannat ayollarining eng afzali deyilganini bilamiz.

Kalit so'zlar: qizlar tarbiyasi, qadryatlar, globallashuv jarayoni, oila muhitining ta'siri, on ava qiz munosabati.

Raising girls is one of the highest goals, duties and responsibilities of every mother, every educated and enlightened woman. Looking back, we know that our mothers performed such beautiful and great tasks as raising girls, and they are called the best of the women of paradise for such tasks.

Key words: raising girls, values, globalization process, influence of family environment, mother-daughter relationship.

Oilada, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytmagan xalqimiz.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi



kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola otana tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus, diyonat kabi boqiy qadriyatlar xalqimiz boy ma'naviyatining ajralmas qismidir. Chunonchi, xalqimiz qiz bolaning ma'naviy yetuk, komil inson bo'lib o'sishi uchun alohida ahamiyat beradi. Chunki qiz bola tarbiyasi – jamiyat tarbiyasi, degan gap bejizga aytilmagan.

Qizlar tarbiyasi har bir onaning, har bir ilmi va ma'rifatli ayolni oliy maqsadlaridan biri hamda burchi va vazifasidir. O'tmishga nazar tashlasak, onalarimiz qizlarni tarbiyalashdek go'zal va ulug' vazifalarni bajargan va ular mana shunday vazifalari bilan jannat ayollarining eng afzali deyilganini bilamiz.

Sharqona tarbiyada qiz bolaning pokizaligi, xushmuomalaligi, kiyinishda to'la liboslanishi, uy ishlarida mohir chevar va pazandaligi, oilaviy aloqalarda halimlik, otasi, aka-ukalariga beg'araz saranjom-sarishtalik xizmatini ado etishi, ularning so'z va sha'nini har qadamda his etishi, onasining yonida mehribon yordamchi sifatida uy yumushlarini toqat bilan egallashi asosiy mezonlar sanaladi. Shu xususda bugungi tadbirda yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash, qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, erta nikoh va uning salbiy oqibatlarini oldini olish, oila muqaddasligi g'oyalari yanada rivojlantirish, bu borada qiz bolaning o'rni va mas'uliyatini tahliliy ma'lumotlar va amaliy misollar asosida tushuntirishga bag'ishlangan ma'ruzalar qilindi. Shuningdek, tadbir doirasida qizlar bilan olib borilayotgan ishlarda natijadorlikka erishish, ularni iqtidorli, faol qizlar bilan doimiy hamkorlikda ishlashini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Qiz bola tarbiyasi alohida diqqat-e'tiborni, mehr-u parvonalikni talab qiladi. Qiz bola tarbiyasiga juda kichkinaligidan e'tibor bilan qarash kerak, deya hisoblayman. O'zbek xonadonlarida qadimdan qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Ularning odobi va tarbiyasi doimiy diqqat markazida bo'lgan. Shunday ekan, men ham ona sifatida qizlar tarbiyasiga oid hammamizga ayon, ammo har vaqt ham yetarli e'tibor berilmayotgan masalalar haqida fikr bildirishni lozim topdim.

Xalqimizda qiz bolaning baxti, ko'p jihatdan ona tarbiyasiga bog'liq ekanligi uqtiladi. Qiz bola uy ishlarini bajarishda onasiga dastyorlik qiladi. Unga o'xshab



ish qilishga tirishadi. Ona qizini kuchi yetgan ishlarga solib, yoshi o'sgan sari yumushlarning turi, hajmini kengaytirib borgan ma'qul. Qizga ish buyurilganida, uni oson va tez bajarish yo'li ko'rsatilsa, yana ham yaxshiroq bo'ladi.

Ona ozodalikni, saranjom-sarishtalikni, xushsuxanlikni sevsa, kuydi-pishdi, mehmondo'st, mehribon bo'lsa, qiz bola unday uyda yayrab-yashnab, erkin o'sadi. Har bir onaning hayot tarzi, yurish-turishi, hamkasblariga, qarindoshlariga munosabati, ro'zg'or tutishi, iffat-andishasi farzandlariga, ayniqsa qiz bolaga ibrat bo'lishi kerak.

Ota-onalar qizlarining kelajagi haqida ko'proq qayg'urishlari lozim. Qizlar uy yumushlariga ko'proq tortilsa, yoshligidan epli qilib tarbiyalansa, uyni yig'ishtirish, hovli va ko'chalarni supurish, kiyim tikish, to'qish, oziq-ovqat xarid qilish, taom tayyorlash, mehmon kutish, dazmol bosish va ko'plab boshqa yumushlarga ko'nikma hosil qiladi.

Qiz bola ertami, kechmi unib-o'sgan xonadonidan boshqa joyga kelin bo'lib tushadi. U yerga borganida qoqilmasligi, gap eshitmasligi, uvali-juvali bo'lib ketishini o'ylab ish tutishi muhimdir. Qiz bola uyida odobni yaxshi olsa, muloyim, shirinsuxan bo'lsa, borgan joyida ham shunday munosabatlarga rioya qiladi va oila hurmat-izzatiga erishadi.

Ba'zi ota-onalar kap-katta qizlarini taltaytirib, uy-ro'zg'or tashvishlaridan, turmush qiyinchiliklaridan chetda tutadilar. Ona butun qiyinchiliklarni o'z bo'yniga oladi. Shunday qilib, uquvsiz, no'noq, hech ishda yo'q qilib o'stiradilar. Qiz bola mehnatda chiniqishi kerak. Qiz bola o'zini bachkanalash tiradigan narsalardan xoli bo'lishi, hamma yerda doim o'zini sodda, kamtar va sipo tuta bilishi, muomalada shirinso'z, shuningdek, hayoli, andishali bo'lishi, hayot masalalarini hal etishda aql-idrok, farosat bilan ish yuritishi kerak.

Qiz bola uchun o'zining tabiiy chiroyini upa-elik bilan bo'yash, sun'iy lash-tirish bema'nilikdir. Qo'sha-qo'sha taqinchoqlar, qimmat kiyimlar qiz bolaga chiroy bermaydi.

Latofatlilik, solixalik – ayolning oliy ziynati, uning uchun bundan-da ortiqroq zeb yo'q. Latofat barcha go'zalliklarni o'zida jamlovchi va barcha ko'rkamlilarni yuzaga chiqaruvchidir. Soliha qizlarni hamma hurmat qiladi. Oilada, ro'zg'or tutishda, mehmon kutishda xulq-atvori va insoniy fazilatlarini bilan ajralib turadi. Mehnatkash qizlarni dasturxon tuzash mahorati, choy quyishi, uy va hovlilarni toza va saranjom ushlaridan bilib olsa bo'ladi.

Ota-onalarning: «Sepi qizim bo'lguncha, epli qizim bo'l» – deya qizlariga nasihat qilishlarining boisi ham shunda bo'lsa kerak.



Masalaning biz uchun muhim jihati zamonaviy taraqqiyotda ayolning milliy-ma'naviy qiyofasini ijtimoiy maqom ma'nosida ko'rmoq orzusidir. Bugun O'zbekiston ham dunyoning globallashuvi, ayniqsa, internet axborot kommuni-katsiya tizimi ta'sirida kirib kelayotgan «ommaviy madaniyat» xavfidan chetda emas. Xorijiy davlatlar bilan aloqalarning beqiyos kengayishi tufayli hammamiz turli g'oyalarni girdobida yashayapmiz. Jamiyatda milliy-axloqiy qadriyatlarning qadsizlanishi, yangicha ijtimoiy munosabat va o'zgarishlar qaror topishi shundan dalolat beradi.

Sharqona qiz tarbiyasida bolaning pokizaligi, xushmuomalaligi, kiyinishda tanasining to'la liboslanishi, uy ishlarida mohir chevar va pazandaligi, oilaviy aloqalarda halimlik, otasi, aka-ukalariga beg'araz saranjom-sarishtalik xizmatini ado etishi, ularning so'z va sha'nini har qadamda his etishi, onasining yonida mehribon yordamchi sifatida uy yumushlarini toqat bilan egallashi asosiy mezonlar sanaladi. Sho'rolar tuzumi davrida bolalar bog'chasidan tortib barcha sohalarida tenglashtirish siyosati natijasida o'g'il bolalar bilan qizlarni bog'chada yonmayon yotishi, partada birga o'tirishi, marosimlarda quchoqlashib valsga tushishi «jinsiy uyg'unlashuv»da muhim omil bo'ldi.

Qiz bola o'g'il bolalar bilan birga yashashi va o'qishi natijasida nafosatidan jasorat tomon shakllandi. O'g'il bolalar esa fe'lidagi zaruriy jasoratlilikdan mosuvo bo'lib, «go'zal yigitcha»ga aylandi.

Ayniqsa, turli yoshlar tashkilotlari qizlarni faollikka undovchi chaqiriqlari bilan ota-onalarining izmidan chiqarib, qiz bolani siyosiy yo'lga soldi. Biz sun'iy asosda xotin-qizlardan turli qahramonlar yasaganimizni hech kim inkor etolmaydi. Oxir-oqibat, qiz bola hatto tamaki va alkogol bilan ham oshno bo'ldi.

O'zbek qizlari kunni kun, tunni tun demay yurtimiz ravnaqi yo'lidagi fidoyi mehnatlariga iqrorimizni bayon etgan holda jamiyatimiz taraqqiyotida jins tarbiyasi buzilishi ijtimoiy og'ishga olib kelishi masalasida fikr bildirdik, xolos. Zero, jamiyatdan bir-ikki qadam oldinda yurib, ijtimoiy komilligimiz yo'lidagi ijobiy va salbiy tomonlarni jamoatchilik muhokamasiga qo'yishi ziyolining burchidir.

G'arb jamiyatida feminizm harakati tufayli oila degan muqaddas makon vayron bo'ldi. Yolg'iz ona, tashlandiq bolalar soni, boz ustiga bir jinsli nikoh kabi jirkanch ijtimoiy kasalliklar kelib chiqmoqda. Ayolning ijtimoiy maqomi va roli o'zgarishi tufayli erkakning erlik mentaliteti nobud bo'ldi. Inson zotida jinsning maqomi va funksiyasi o'zgarishi ijtimoiy halokatga olib kelishi muqarrar. Ayniqsa, qiz bolaning tarbiyasidagi bitta xato ham oilaning buzilishiga olib keladi. Biz har qanday sadoqatli er o'z oilasi, farzandlarini tashlab o'zga ayol bilan turmush



qurib yashashiga iqror bo'lsakda, ayol bolasini tashlab o'zga erkak bilan turmush qurishini devonalik ko'rsatkichi, deb hisoblaymiz. Shu o'rinda er o'z farzandini sotishi u yoqda tursin, ona o'z farzandini sotishi holatini qanday izohlash mumkin?..

Bir necha ommaviy joylarda yosh singillarimizning erkaklar bilan «dahanaki jangi»ga guvoh bo'ldik. U yerda ayb yigitda bo'lmasa-da, shunday haqoratlarni bo'yqizdan eshitdikki, hatto ilon bu so'kishlardan nafaqat po'stini, balki go'shtini ham tashlaydi... Ayni vaqtda internet saytlaridagi videoroliklar bilan dalillashga hojat ham yo'qdir. Ezgulik va yovuzlik ijtimoiy taraqqiyotda shakllanar ekan, qiz bola tarbiyasi bo'lmasa millat kelajagiga soya tushadi. Barcha milliy g'am-tashvishlarimiz gender tarbiyasidadir. Zero, buyuk olim Yu.Xarari «Qurollangan qo'ylar qurollangan bo'rilardan xavflidir», deganda insoniyat jamiyati o'z qonunlariga tayanishiga e'tibor qaratgan. Agar zamondoshlarimiz oila davrasida o'zlarining maktab yoki oliyog'ha ketayotgan qizlari va singillariga bir bora e'tibor berib qo'ysalar, murodimiz hosil bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. -T.: TTYMI, 2010.
2. Xudoyqulov X.J. O'zbek qizining g'ururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: «Dizayn-Press», 2011.
3. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. - Toshkent: «Adolat», 2016.
4. Qodirova, S. (2018). «Sharqona tarbiya va zamonaviy ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri». Ma'naviyat va hayot, №2.
5. Jo'rayev, R. (2019). Oila pedagogikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
6. Norqulov X. D. Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash masalalari. Monog-rafiya.-Toshkent, 2021
7. Norqulova, M. (2021). Milliy qadriyatlar va qizlar tarbiyasi. Toshkent: NMIU



«TABIY FANLAR» – (SCIENCE)NI O‘QITISHDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA UZLUKSIZLIGI VA IZCHILLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

M.G‘.BORATOVA,

Sh.Rashidov nomidagi SamDU, p.f.f.d. (PhD)

SH.Q.MUXAMMEDOV,

Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida «Tabiiy fanlar»ni o‘qitish metodikasi va boshqa tabiiy fanlar tizimini o‘qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar tashkil etishning va interaktiv metodlarni qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’siri va talabalarning ilmiy-nazariy va kasbiy-metodik tayyorgarligi jarayonidagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: «Tabiiy fanlar», ta’lim, kasbiy faoliyat, innovatsion muhit, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, ilmiy-nazariy tayyorgarlik, kasbiy-metodik tayyorgarlik, mustaqil ta’lim, mustaqil faoliyat, ijodiy faoliyat, interaktiv metodlar, «Grafik tashkil etuvchilar», muammoli ta’lim, va boshqalar.

В статье представлена информация о положительном влиянии организационных современных подходов к методике преподавания естественных и других естественных наук в высших учебных заведениях, а также об использовании интерактивных методов на эффективность обучения и их значимости в процессе научно-теоретической и профессионально-методической подготовки студентов.

Ключевые слова: естественные науки, образование, профессиональная деятельность, инновационная среда, инновационный подход, компетентностный подход, педагогическая деятельность, научно-теоретическая подготовка, профессионально-методическая подготовка, самостоятельное обучение, самостоятельная деятельность, творческая деятельность, интерактивные методы, «графические организаторы», проблемно-ориентированное обучение и др.

This article presents information on the positive impact of modern approaches to teaching methods in natural and other natural sciences in higher education institutions, as well as the use of interactive methods on learning effectiveness and their importance in the scientific, theoretical, and professional training of students.

Key words: natural sciences, education, professional activity, innovative environment, innovative approach, competency-based approach, pedagogical activity, scientific, theoretical, professional training, independent learning, independent activity, creative activity, interactive methods, graphic organizers, problem-based learning and others

Yangilanayotgan ta’lim muhitida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni ilmiy-nazariy va kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta’limga zamonaviy yondashuvlar, xususan, innovatsion, kreativ, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvni qaror toptirish, ta’limda innovatsion muhitni yaratish va fanlararo integratsiyani rivojlantirish,



talabalar mustaqil ta'limini kuchaytirish va uni nazorat qilish masala bo'lib qolmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fan predmetlari mazmuni, uni o'qitishga bo'lgan talab o'zgardi. Masalan, 5-6-sinfda o'qitiladigan geografiya, botanika, fizika kabi fanlarning boshlang'ich tushunchalari uzviy va izchil ravishda 1-6-sinflarda integrativ holda o'qitishni yo'lga qo'yilganligi bo'lg'usi o'qituvchilardan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur bosqichda bilim va tushunchalarni o'quvchilarga oddiydan murakkabga tomon yo'nalishda, sodda qilib tushuntirish uchun talaba-bo'lg'usi pedagog tabiat hodisalari, obyektlar, turli jarayonlarni biologik, fizik, kimyoviy, geografik, ekologik jihatlarini chuqur bilishi hamda ta'limni tashkil etishning turli zamonaviy yo'llarini uddalay olishi talab etilishi ayni dolzarb masala hisoblanadi.

Yangi O'zbekistondagi ta'lim tizimida modernizatsiya jarayoni oliy ta'lim oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtma, ya'ni, raqobatbardosh kadr va barkamol shaxsni tarbiyalash bo'lib, uni zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan:

Tizimli yondashuv – har qanday obyektning anglash va tushinishda yetkchi umumiy yondashuv sanalib, uning asosida har bir obyekt, vo'qea-hodisa mohiyatini ilmiy-nazariy bilish, itimoiy xususiyatini anglash, amaliyotga qo'llay o'lish uchun, ularni tizim sifatida o'rganish yotadi. Tizimli yondashuvchi pedagogikaga qo'llash esa ilmiy bilimlarning variativ komponentlarini aniqlash imkonini beradi va uni pedagogik tizim sifatida quyidagicha tavsiflas mumkin: ta'lim-tarbiya jarayoni tizim sifatida yaxlitlik, aloqadorlik, tuzilishi va tashkillashuvi, tizim darajasi va iyearxiyasi, boshqaruv, tizimning maqsadi va maqsadga muvofiqligi, tizimning o'z-o'zini tashkil qilishi, uning mavjudligi va rivojlanishi, progressivligi hisoblanadi.

Tizimli yondashuv pedagogik izlanishlarning metodologik asosi sifatida pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuv – o'qituvchidan ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usul, metod, metodika va texnologialarga yangicha o'zgartirishlar kiritib, takomillashtirishni talab etadi.

Integatsion yondashuv orqali o'qituchi o'qitilayotgan fanlar mazmunini o'zaro bog'lash, bir-biriga uygu'nlashtirishga erishadi va tahsil oluvchini assosiativ-bog'lanishli fikr yuritishga yo'naltiradi, fikrlarni bayon eta olishga imkon beradi.

Texnologik yonndashuv esa tahsil oluvchi uchun yetarli shart-sharoit tayyorlash bilan birga, didaktik jarayonni to'g'ri tashkil qilish va sifat va



samaradorligini orttirish uchun vaqtdan optimal darajada foydalanish hamda turli texnologiya, metod va usullarni uyg'un, izchil holda qo'llay olishni taqozo etadi.

Kreativ yondashuv orqali quyidagilarni amalga oshirishga erishish mumkin:

– har bir o'quvchi-talabaga individual va ijodiy yo'naltiruvchi munosabatni yo'lga qo'yish;

– o'qitishning rivojlanish vektori uchun sharoit yaratish;

– o'quvchi-talabaning shaxs sifatidagi ijodiy rivojlanishiga ko'maklashish;

– o'quvchi-talabada ijodkorlik, tanqidiy, kretaiiv fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish;

– pedagogik avtoritarizmdan qochish, har bir o'quvchining kreativligini aniqlash mumkin.

Kompetentsiyaviy yondashuv orqali esa:

– o'quvchi-talabaga subyekt sifatida qaraladi, natijada esa o'quvchi-talaba subyektiv faoliyatga kirishadi;

– o'qituvchining moderatorlik funksiyasi yuzaga keladi;

– shaxsiy va tayanch kompetentsiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'maklashiladi;

– fanga oid, kasbiy va pedagogik kompetensiyalar shakllanadi;

– o'quvchi-talabaning motivatsiyalarini aniqlash va ruhiy barqarorligini ta'minlash amalga oshiriladi;

– o'quv mashg'ulotlarini interaktiv va integrativ usulda amalga oshirishga erishiladi.

Ma'lumki, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini izchil va uzviylikda tashkil etiladi.

Chunki ekologik tushunchalar dastavval oilada shakllantirilsa, maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalarida esa bu yanada takomillashadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa bu tushunchalar o'quvchilarga ilmiy asosda o'rgatila boshlanadi. Ekologik tushunchalar esa o'quvchilarga tabiiy fanlar mazmuniga singdirilgan holda, uni o'qitish asnosida amalga oshirilish talab etiladi. Bu esa ekologik tushuncha va bilimlarni o'qitishga jiddiy e'tibor qaratilmasligiga, o'quvchilar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmasligiga olib kelmoqda. Masalan,

– 1-sinfda tabiiy fanlarni o'qitish «Tabiat» bo'limi bilan boshlanib, unda o'quvchi tadqiqotchi sifatida o'simlik tanasida moddalar harakatini, o'simlik tarkibidagi moddalarni to'planishini (o'simliklardan sharbatlar tayyorlash asnosida) o'rganish bilan bir qatorda tirik organizm va jonsiz tabiatni bir-biridan farqini o'rgatilmoqda;

– «Tabiiy fanlarni» 2-sinfda o'qitish orqali o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, ularni o'sishi va rivojlanishi, tuproq, Yer sayyorasi, yorug'lik, harorat, kabilar;



– 3-sinfda, tabiat va inson munosabatlari, tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik;

– 4-sinfda oʻlka tabiati, tabiat zonalari, oʻz yashash joyi, tabiat boyliklari, tabiat yodgorliklari;

– 5-sinfda oʻrganizmlarning moslanishi; moddalarning agregat holati, moddalarni oʻzaro taʼsiri, suvning xususiyatlari;

– 6-sinfda oziq zanjiri, oziqa toʻri, modda va energiya oʻqimi, zaharli moddlarni tabiatga va tirik organizmlarga taʼsirini oʻrganadi.

Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish «Tabiiy fanlar»ni oʻqitishda taʼlimning interaktiv metodlarini qoʻllashni talab etadi. Hozirgi taraqqiy etgan zamonda «taʼlim samaradorligini oshirishning eng maqbul yoʻli – bu mashgʻulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir», – deydi professor N.Muslimov. Shu oʻrinda interfaol metod tushunchasiga toʻxtalib oʻtsak.

Grafikli tashkil etuvchilar (organayzerlar) – fikriy jarayonlarni koʻrgazmali taqdim etish vositasi hisoblanib, ularni didaktik jarayonga qoʻllash va foydalanish xususiyatiga koʻra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maʼlumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy boʻlib chiqish, oʻrganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) oʻrtasidagi aloqa va oʻzaro bogʻliqlikni oʻrnatish usul va vositalari sifatida foydalaniladigan metodlar. Bularga «Klaster», «Toifalash jadvali», «Insert», «B.B.B.» usullari kiradi.

2. Maʼlumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari sifatida foydalaniladigan metodlarga «T-jadvali», «Venna diagrammasi», «Debat» metodlari misol boʻladi.

3. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalariga esa: «Baliq skeleti», «Piramida», «Nilufar guli» sxemalari, «Nima uchun?» va «Qanday?» iyerarxik diagrammasi, «Kaskad» tarkibiy-mantiqiy sxema metodlari kiradi.

Xynoca:

– Birinchi navbatda qayd etilgan – geografiya, biologiya, kimyo, fizika, ekologiya boʻyicha mutaxassislarni ilmiy-nazariy tayyorgarligini oʻqitish uchun mana shu fanlar doirasida chuqur bilimga ega boʻlishini taʼminlash zarur;

– Ikkinchidan, Tabiiy fanlarni oʻqitish metodikasi boʻyicha bilim, koʻnikma, malakaga ega boʻlishi lozim;

– Uchunchdan, mazkur yoʻnalishlarda tahsil oluvchi talabalarga ekologiya predmeti albatta, oʻqitilishi lozim;



– To‘rtinchidan, «Tabiiy fanlar»ni o‘qitishga tizimli, texnologiya, innovatsion yondashuv orqali o‘qituvchi o‘z innovatsion faoliyatini yo‘lga qo‘yishi va ta‘lim muassasasida innovatsion muhitni talab darajasida tashkil etishi maqsadga muvofiq.

– Beshinchidan esa, «Tabiiy fanlar»ni o‘qitishda ekologik ta‘lim-tarbiyani izchilligi va uzluksizligini ta‘minlash uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinflardan boshlab ekologiya darslarini o‘qitishi yo‘lga qo‘yish zarur. Buning uchun ekologiya predmetining dasturi va boshlang‘ich sinflar uchun darsliklar, o‘quv qollanmalar yaratish kerak.

– Oltinchidan, ta‘lim muassasasida ekologik ta‘lim-tarbiyani amalga oshirilishini qat‘iy nazorat qilish zarur.

Shunday ekan, yangilangan ta‘lim muhotida «Tabiiy fanlar»ni sifatini oshirish uchun o‘qitish oliy ta‘lim muassasalarida tabiiy fanlarni – fizika, geografiya, biologiya, kimoyo, ekologiyani o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, uni nazoratini amalga oshirishga jiddiy e‘tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni <http://Lex.uz/docs/-5013007>

2. Mirziyoyev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizim va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». T.: «O‘zbekiston» - 2017 y. 45-bet

3. Боратова М.Ф. Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда мустақил таълимдан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.-Чирчиқ- 2022.-119 б.



TABIYI FANLARNI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISH ORQALI TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

S.Z.RASHIDOVA,

Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti bosh mutaxassisi

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida STEAM yondashuvining rolini va uning o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini – kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, dizayn va muhandislik salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritadi. STEAM yondashuvi mazmuni, uning turli ko'rinislari, fanlararo integratsiya tamoyillari va global ta'lim jarayonidagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, bu yondashuv asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: STEAM yondashuvi, STEM, fanlararo integratsiya, XXI asr ko'nikmalari, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, sun'iy intellekt, tadqiqotchilik ko'nikmalari, modellashirish, hayotiy ko'nikmalar.

В данной статье рассматривается роль STEAM-подхода в образовательном процессе и его значение в развитии у студентов навыков XXI века: креативности, критического мышления, решения проблем, проектного и инженерного потенциала. Широко освещается содержание STEAM-подхода, его различные проявления, принципы междисциплинарной интеграции и его значение в мировом образовательном процессе. Также рассматривается развитие исследовательских навыков на основе этого подхода.

Ключевые слова: STEAM-подход, STEM, междисциплинарная интеграция, навыки XXI века, творческое мышление, критическое мышление, искусственный интеллект, исследовательские навыки, моделирование, жизненные навыки.

This article discusses the role of the STEAM approach in the educational process and its importance in developing 21st century skills in students - creativity, critical thinking, problem-solving, design and engineering potential. The content of the STEAM approach, its various manifestations, principles of interdisciplinary integration and its importance in the global educational process are widely covered. The development of research skills based on this approach is also covered.

Key words: STEAM approach, STEM, interdisciplinary integration, 21st century skills, creative thinking, critical thinking, artificial intelligence, research skills, modeling, life skills.

Bugungi kunda o'quvchilar zamonaviy texnologiyalar, xususan, telefon va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol axborot almashish asrida yashamoqdalar. Ular yangiliklardan tezda xabardor bo'lishadi, turli manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot



izlash va ma'lumot olish imkoniyatiga ega. Shu sababli, ta'lim jarayonida pedagog-o'qituvchidan ma'ruzachi sifatida faqat bilim berish emas, balki o'quvchini darsga qiziqtirish, uni faol ishtirok etishga undash, mustaqil fikrlash va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun pedagog zamonaviy, interaktiv va innovatsion o'qitish metodlaridan samarali foydalanishi, dars jarayonini hayotiy misollar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitishi zarur. Buning uchun pedagoglar doimo shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo'lida izlanishda bo'lishi, o'z ustida ishlashni to'xtatmasligi, zamonaviy ta'lim tendensiyalarini kuzatib borishi zarur.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlar malakasini oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fan (Science) o'qituvchilari uchun 2025-2026-o'quv yilida tashkil etiladigan «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarining o'quv reja va dasturida darsni samarali tashkil etish, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, o'quvchilarni tanqidiy, kreativ fikrlashga, yangilik yaratishga qaratilgan yondashuvlardan biri «Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuvi» mavzusi ham kiritilgan.

STEAM yondashuvi nima uchun muhim?

STEAM – bu Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) sohalarini o'zaro integratsiyada o'qitishga asoslangan zamonaviy ta'lim yondashuvidir. Uning maqsadi – o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim berish, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llash, ijodiy fikrlash va muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu yondashuv bilimni yod olish emas, uni anglash va qo'llash, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtirishga asoslanadi. STEAM yondashuvi o'quvchini muammoga duch kelganda «savol beruvchi, izlanadigan va yangilik yaratuvchi» shaxs sifatida tarbiyalaydi. U «bilimdan ijodga, nazariyadan amaliyotga, o'rganishdan kashf etishga» olib boruvchi intellektual bog'lovchi ya'ni ko'priki bo'lib, o'quvchining qiziquvchanligi va ijodkorligini uyg'otadi. Misol uchun, o'quvchi fizika darsida energiya haqida o'rganib, texnologiya orqali quyosh paneli loyihasini yaratadi, muhandislik nuqtai nazaridan uning tuzilishini hisoblaydi, san'at orqali dizaynini bezaydi va matematik formulalar yordamida samaradorligini aniqlaydi.

XXI asrda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarda kreativ, tanqidiy va amaliy fikrlashni rivojlantirish global ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishiga



aylangan. AQSh, Yevropa davlatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlarda STEM/STEAM ta'limi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilib, fanlararo integratsiya va zamonaviy ta'lim standartlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Rivojlangan davlatlar Big Data, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar yutuqlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etgan holda sog'liqni saqlash, bank, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. Bugungi mehnat bozorida esa nafaqat texnologiyani tushunadigan, balki real muammolarni hal qilish uchun bilimini samarali qo'llay oladigan mutaxassislar uchun talab katta. Shu bois dunyo mamlakatlarining milliy ta'lim dasturlarida STEM yondashuvlarining turli ko'rinishlari keng miqyosda joriy etilmoqda.

STEAM yondashuvining turlicha ko'rinishlari

T/R	STEM turlari	Fan sohalari	Umumiy tasnifi
1.	STEM	Science, Technology, Engineering, Mathematic	Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini birlashtirib o'qitishga yo'naltirilgan yondashuv
2.	STEAM	Science, Technology, Engineering, Art, Mathematic	Tabiiy fan va texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan bir qatorda, dunyoning qonunlarini tushunish uchun juda muhim bo'lgan yondashuv
3.	STEAM	Science, Technology, Engineering, Applied Mathematics	Tabiiy fan, texnologiya, muhandislik fanlarini amaliy matematika fanlarini uy'g'unlashtirgan tarzda ta'lim berish
4.	STREAM	Science, Technology, Reading + Writing Engineering, Arts, and Mathematics	O'ish va yozish orqali dunyo qonunlarini tushunish uchun muhim bo'lgan san'at va matematika bilan birgalikda fan va texnologiyalarni, muhandislikni birlashtirishga mo'ljallangan ta'lim yondashuvi
5.	STREM	Science, Technology, Robotics, Engineering, Mathematics	Tabiiy fanlar, texnologiya, robototexnika, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uy'g'unlashtirgan tarzda ta'lim berish
6.	eSTEM	Environment, Science, Technology, Engineering, Mathematics	STEM yondashuvini atrof- muhitni muhofaza qilish maqsadida atrof- muhit, ilm-fan, texnologiya, muhandislik hamda matematika sohalarni uy'g'unlashtirib o'qitish
7.	STEM PhBL	Science, Technology, Engineering, Mathematics through Phenomenon - based learning	Tabiiy fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini birlashtiradigan ta'lim yondashuvi dunyo qonunlarini usluuush uchun juda muhim bo'lib, hodisalarni o'rganishga asoslangan
8.	STEM PBL	Science, Technology, Engineering, Mathematics through Problem - based learning	Muammolarni o'rganishga asoslangan dunyo qonunlarini tushunish uchun muhim bo'lgan ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini birlashtirishga mo'ljallangan yondashuv
9.	STEMM	Science, Technology, Engineering, Mathematics, Medicine	Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika va tibbiyot fan sohalarini mujassamlashtirgan holda ta'lim berishga qaratilgan
10.	STEEM	Science, Technology, Engineering, Economics,	Tabiiy fan, texnika fanlari, muhandislik, iqtisod va matematika



Tabiiy fanlar sohasida, masalan, biologiya, kimyo, fizika yoki geologiya kabi fan sohalarda, tadqiqotlar ko‘pincha kuzatuv, eksperiment va modellashtirish usullari orqali olib boriladi. STEAM sohasida esa bularning ustiga texnologik qurilmalar yaratish, muhandislik yechimlarini ishlab chiqish va san‘at elementlari orqali yaratuvchanlikni namoyon etish ham qo‘shiladi. Shu sababli, avvalgi ilmiy ishlarni o‘rganish, ya‘ni adabiyotlarni tahlil qilish bosqichi har doim tadqiqotning mustahkam negizi hisoblanadi. Bu bosqichda ilgari o‘tkazilgan eksperimentlar, ishlab chiqilgan texnologiyalar va nazariy yondoshuvlar ko‘rib chiqiladi, yangi tadqiqot uchun ilmiy asoslar yaratiladi.

Natijalarni baholash bosqichida ularning ishonchligi, amaliy qo‘llanilishi va yangi texnologiyalar yoki bilimlarga qo‘shgan hissasi o‘rganiladi. STEAM tadqiqotlarida nafaqat ilmiy, balki texnologik va dizayn jihatidan ham baholash muhimdir. Misol uchun, yangi qurilma yoki dasturiy ta‘minot sinovdan o‘tkazilib, uning samaradorligi va foydalanuvchi talablariga qanchalik javob berishi aniqlanadi. Tadqiqotning chegaralari va imkoniyatlari ham aniq ko‘rsatiladi, bu esa kelgusida yanada rivojlangan va mukammal yechimlar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Xulosalash jarayonida tadqiqot natijalari va ularning tabiiy fanlar hamda STEAM sohasidagi ahamiyati ochib beriladi. Bu yerda ilmiy yangiliklar, amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari, muhandislik yechimlari va ijodiy jarayonlardagi o‘zgarishlar ta‘kidlanadi. Bundan tashqari, kelajakda ushbu sohalarda yangi tadqiqot yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. STEAM sohasida integratsiyalashgan yondashuvlar – fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematikaning birlashuvi orqali yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Shu bois tadqiqotchilar faqat o‘z sohasida emas, balki boshqa yo‘nalishlar bilan ham yaqindan hamkorlik qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>.

2. Z.B.Sangirova va boshqalar., Umumta‘lim maktablari uchun STEAM ta‘limini joriy etish, Toshkent 2022.

3. Rashidova S.Z. O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda STEAM yondashuvi ahamiyati //»Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar: muammo va yechimlar» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman konferensiyasi materiallari to‘plami, (2025-yil 30-may) - T.: Science and Innovation

4. Ta‘limga STEAM yondashuv tatbiqi «Qamar media» Nashriyoti TOSHKENT - 2021

5. I.E. Shernazarov, S.R. Akbarova «Xalqaro baholash asoslari» qo‘llanma, Toshkent 2022.



TADQIQOTCHILIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

M.P.DJUMANIYAZOVA,

*Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti
«Biologiya» kafedrasida katta o'qituvchisi*

Tadqiqotning asosiy g'oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko'rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli o'quvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *tadqiqotchilik ko'nikmalari, «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» fanlari, «Tabiiy fanlar» darsligi, ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish.*

The main idea of the research is to involve students who are capable of seeing, formulating and solving current scientific problems, finding new creative solutions and implementing them in practical activities in scientific and research activities and to develop a system of their continuous innovative training within the framework of scientific and research activities.

Key words: *research skills, subjects «The World Around Us» and «Natural Science», textbook «Natural Sciences», orientation to scientific and research activities.*

Ta'lim muassasalarida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bevosita tadqiqotchilik ko'nikmalarining kompetensiyaga aylantirilishi ko'p ma'noda ta'lim jarayonida aniq maqsadlarning to'g'ri qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Maktab o'quvchilarida fanni o'zlashtirish va bevosita undagi kichik loyihalarni bajarish texnologiyalari asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Shu ma'noda ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida endilikda «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» fanlari o'rni kiritilgan «Tabiiy fanlar» darsligining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlarni qamrab olgan. Bu fanning reja asosida belgingan ko'p mavzulari amaliy mashg'ulotlar tarzida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish nafaqat sinfda, balki uning davomi sifatida uy sharoitida ham bajarish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilar-ning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlariga imkoniyat yaratadi. Ya'ni darsdagi amaliy ishlar bevosita o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi qaysidir ma'noda ularning kichik tadqiqot ishlariga tayyorlaydi desak adashmagan bo'lamiz.

Xuddi shunday boshlang'ich sinflardan keyingi ta'lim bosqichida biologiyadan 6-sinflarda ham «Tabiiy fanlar» o'qitiladi. Darslarni o'zlashtirishda



mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida o'quvchilarga o'rgatilishi bevosita ularda talqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa biologiya darslarini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini, kichik loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi L.A. Volkova bu borada maktab o'quvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning psixologik-pedagogik shartlarini hisobga olgan holda, yosh xususiyatlariga, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan va psixologik jihatdan shartlangan faoliyatning asosiy turlariga alohida e'tibor berish kerak ekanligini aytib o'tgan. Tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish uchun o'rta maktab o'quvchilarini tanlash mezonlari orasida:

- ijodkorlik, shu jumladan fikrlash bilan bog'liq;
- o'rta maktab o'quvchisining izlanish faoliyatiga intilishi;
- mehnatsevarlik;
- o'z e'tiqodlarini himoya qilishga tayyorlik;
- o'z-o'zini tanqid qilish;
- turlicha fikrlash;
- ilmiy tadqiqot uchun gipotezani ishlab chiqish, ya'ni muammoni ko'rish va uni hal qilish yo'lini topish qobiliyati;
- ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish;
- ijodiy optimizm, ya'ni muvaffaqiyatga yo'naltirilganlik, ijobiy munosabat;
- intellektual, ijodiy va rivojlanish dinamikasi aloqa maxorati va boshq.

O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda maktablar tajribasini tahlil qilish o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun bir qator psixologik-pedagogik shartlarni aniqlashga yordam berdi.

Psixologik holatlarga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga motivatsiyasini shakllantirish, bu tadqiqot faoliyatining o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish uchun ma'ruzalar o'qishni nazarda tutadi; o'quvchilar muvaffaqiyatini ommalashtirish; olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish; maktab olimpiadalari, konferensiyalar, ijodiy tanlovlar o'tkazish; rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va boshqalar.

2. Psixologik monitoring, treninglar. Bu erda maktab psixologining iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va maktab o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlari, diagnostika natijalarini sharhlash va muhokama qilishda maktab o'qituvchilari bilan yaqin aloqada bo'lish juda muhimdir.



Pedagogik shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuqori daraja ilmiy ijodkorlik va o'qituvchilarning pedagogik mahorati, o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati rahbarlari.

2. O'quvchilarning bilim saviyasini va intellektual tashabbuskorligini oshirish (nodavlat ta'lim muassasasida ishlash, turli loyihalarni ishlab chiqishda, ijodiy tanlovlarda qatnashish va h.k.)

3. Ta'limning noan'anaviy usullaridan foydalanish.

4. Ta'lim jarayoniga tadqiqot o'qitish texnologiyasini joriy etish.

5. Tadqiqot asoslari bo'yicha maxsus kurslar (tanlama, ijodiy seminarlar).

6. Universitet o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha o'quvchilarga individual va guruhli maslahatlar berish (Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik bo'yicha kelishuvlar).

Ushbu psixologik-pedagogik shart-sharoitlardan maktab o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin, bu nafaqat maktab, shahar va viloyatda olimpiadalar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishtirokchilari va sovrindorlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi. balki Butun-rossiya darajasida ham. Natijada maktab nufuzi oshadi. O'rta umumiy ta'limni aholi jon boshiga moliyalashtirish dasturini amalga oshirish ta'lim muassasalari bu omilni raqobatbardoshlikni ta'minlovchi yetakchi omil sifatida belgilaydi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning fikrlashning moslashuvchanligi va o'ziga xosligini rivojlantirish, shuningdek, konvergent fikrlashni shakllantirishdan divergent fikrlashni shakllantirishga o'tishdir, chunki divergent fikrlash harakat qiladi. asosiy xususiyat o'rta maktab o'quvchisining fikrlash moslashuvchanligi.

Yuqori sinf o'quvchilarini tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda bajarilgan tadqiqot vazifasiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni har bir o'quv predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning qiziqishlarini qamrab oladi. Biologiya darslari ham o'quvchilarni ko'p tomonlama o'ziga jalb etadi. Yuqori sinf o'quvchilari 9-sinfda «Biologiya» fani doirasida tabiat bilan bog'liq muhim ilmiy ma'lumotlarni, ularni anglashdagi ilmiy dalillar va ularning mohiyatini tushunish bo'yicha mavzularni o'zlashtirib boradilar.

O'quvchi ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida tadqiqotchilik bo'yicha quyidagi bir qator ishlarni bajaradi:

– Mustaqil ravishda laboratoriya mashg'ulotlarini bajaradi;

– Tabiatda kichik tadqiqot ishlarini bajaradi;

– Maktab tirik burchagida hayvonlarning yashash tarzini o'rganadi, tadqiq qiladi;

– tadqiqot mavzulari bo'yicha referatlar yozadi;

– kichik loyiha ishlarini bajaradi.



Umumta'lim maktablarining 9-sinflarida biologiya darslarining didaktik mazmuni tahliliga ko'ra, mavzular bilan birgalikda, 8-ta laboratoriya mashg'uloti va 3-ta amaliy mashg'ulot keltirilgan. Mazkur biologiya kursida bevosita organizmning xujayraviy shakllari, uning kimyoviy tuzilishi va xususiyatlari, genetik asoslari, modda almashinuvi va organizmlarning individual rivojlanishi bilan bog'liq nazariy bilimlarni o'zida aks etgan mavzular keltirilgan. Bu mavzularni o'rganish uchun o'qituvchi tomonidan hozirgi kunda juda ko'plab innovatsion ta'lim usullari va vositalari joriy etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat o'quvchilarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishni xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo'yicha o'quvchilar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda biologiya darslarida o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi.

Shu ma'noda ta'kidlash joizki, tadqiqotchilik ko'nikmalari har bir sinf o'quvchilari orasida juda ko'pchiligini tashkil etmasligi mumkin, lekin shunday bo'lsada aynan fanga qiziqishi bo'lgan yoki tadqiqot qilishni hojlovchilar bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchi tomonidan o'z tajribasi davomida o'quvchini to'g'ri yo'natirishi kelajakda o'quvchida fan doirasida sof bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, ularni real baholay olish, mantiqiy fikrlashi, axborotni saralash va foydalana olish ko'nikmalarini ham birgalikda samarali rivojlantiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'nikmalar o'quvchining egallagan bilimi va ko'nikmalarining rivojlanib borishi hisobiga kompetensiyaga aylanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obuxov A.S. Tadqiqot faoliyati o'smirning madaniy makonga kirishining mumkin bo'lgan usuli sifatida: O'quvchilarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish: Uslubiy to'plam / A.S. Obuxov. - M.: Xalq ta'limi, 2001. - B.48-63.
2. Qaraxonova L.M. O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // «Xalq ta'limi» j. № 3. - Toshkent, 2023 yil.



BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI TA‘LIM JARAYONIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

D.O. RAXMONOVA,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik jihatlari tahlil etilgan. Sog‘lom turmush tarzi zamonaviy jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida qaralib, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ushbu jarayondagi yetakchi roli asoslab berilgan. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini shakllantirish uchun samarali pedagogik shart-sharoitlar tavsifiya etilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy tayyorgarlik, sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalar, gipodinamiya, jismoniy faollik.

В данной статье проанализированы педагогические аспекты подготовки будущих учителей физической культуры к эффективному использованию технологий формирования и развития здорового образа жизни. Здоровый образ жизни рассматривается как важнейший фактор устойчивого развития современного общества, а ведущая роль учителя физической культуры в этом процессе обоснована. Рекомендованы эффективные педагогические условия для повышения профессиональной готовности будущих учителей физической культуры и формирования у них знаний, умений и компетенций, необходимых для развития здорового образа жизни.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, физическое воспитание, педагогические условия, профессиональная подготовка, оздоровительные технологии, гиподинамия, физическая активность.

This article analyzes the pedagogical aspects of preparing future physical education teachers to effectively use technologies for forming and developing a healthy lifestyle. A healthy lifestyle is considered an important factor for the sustainable development of modern society, and the leading role of the physical education teacher in this process is substantiated. Effective pedagogical conditions are recommended to enhance the professional readiness of future physical education teachers and to develop their knowledge, skills, and competencies related to promoting a healthy lifestyle.

Key words: healthy lifestyle, physical education, pedagogical conditions, professional training, health-improving technologies, hypodynamia, physical activity.

Hozirgi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni targ‘ib qilish barcha sohalarida, xususan, ta‘lim tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa,



jismoniy tarbiya o'qituvchilari maktabdagi sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Shu bois, ularni ta'lim jarayonida zamonaviy sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash pedagogik jihatdan muhim masala hisoblanadi. Kelajakdagi jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ta'lim jarayonida sog'liqni saqlash yondashuvini amalga oshirish bo'yicha kompetentligi yangi ta'lim natijasi sifatida namoyon bo'ladi - bu mutaxassisning sog'likni saqlash bilan bog'liq didaktik muammolarni samarali hal qila olish qobiliyatini belgilovchi integratsiyalashgan xarakteristikadir.

Ta'lim orqali sog'lik salohiyatini takomillashtirish va uni saqlash amalga oshirilishi kerak. Bu sog'liq fenomenini eng oliy qadriyat sifatida anglashni hamda o'z sog'lig'iga nisbatan butkul boshqacha munosabatlarni shakllantirishni talab qiladi. Shu sababli "Sog'liq - ta'lim orqali!" degan g'oya chuqur tahlilga loyiqdir. Bu yo'l sog'liqni o'rgatish va sog'lom turmush madaniyatini tarbiyalash, yangi fikrlash paradigmasini shakllantirish orqali kechadi, unda sog'liq hayotning eng asosiy mohiyati sifatida ko'rinadi.

Shaxsiy farovonlik ta'lim muhiti va ta'lim jarayonining umumiy farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun, faqat o'zi uchun sog'lomlashtiruvchi tizim yaratgan o'qituvchi o'z o'quvchilari uchun ham bunday tizimni yaratishi mumkin. O'zini va kelajakdagi o'quvchilarini sog'lomlashtirish bo'yicha tizimli ko'nikmalar, sog'lomlashtiruvchi muhit yaratish esa pedagogika oliy ta'lim tizimidagi bakalavrlar tayyorlash jarayonida shakllantirilishi lozim va mumkin.

Biroq, ta'lim tizimi shaxsning yetuk shakllanishiga to'liq xizmat qilishi uchun, pedagogik sharoitlarni yaratish zarur bo'lib, unda aniq dunyoqarash pozitsiyasi shakllanib, olinayotgan bilim va ko'nikmalar amaliy ravishda o'zlashtiriladi. Buning uchun sog'liq masalasi va turmush tarzini qurishda har bir inson o'ziga oid mavjud bilim va tushunchalar, atrof-muhit va unga bo'lgan munosabatlarga tayanganini hisobga olish lozim. Sog'lomlikka va sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ma'lum pedagogik o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va tarbiyalanadi.

Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari - bu o'quvchilarda sog'lom hayot tarzini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan metodlar, usullar va vositalar majmuasidir. Bu texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Olimlar fikricha, sog'lom turmush tarzi insonning ma'naviy rivojlanish



muammosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning umumiy madaniyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzini o'rgatish va sog'lom shaxsni tarbiyalash amaliyotini yangilash ong va o'zini anglashning ijodiy faolligini shakllantirish, har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish vazifasi kattalar bolalarga hurmat, insonparvarlik va adolat ko'rsatganida samaraliroq amalga oshadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish g'oyalari samarali amalga oshirish uchun jismoniy madaniyatning mavjud salohiyatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi texnika asrida inson hayoti ko'plab qulayliklar bilan boyigan bo'lsa-da, u bilan birga kamharakatlilik va gipodinamiya kabi sog'liq muammolari ham tobora kuchayib bormoqda. Aynan shu jarayonda jismoniy tarbiya o'qituvchilariga katta umidlar bog'lanmoqda. Ularning faoliyati sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kamharakatlilikning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va gipodinamiya muammosini yengish yo'llarini izlashga qaratilmoqda.

Bu bosqichda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari jismoniy o'zini takomillashtirishga ongli ehtiyojni shakllantirish va sog'lom turmush tarziga intilishni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Ushbu mutaxassislik uchun tayyorlangan asosiy o'quv rejasi muammoni hal etishga yordam beradi, chunki unda pedagogika, psixologiya, inson anatomiyasi, fiziologiyasi, gigiyena, biokimyo, turli yosh guruhlar uchun jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kabi fanlar mavjud.

Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi sifatida, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasini shakllantirish belgilangan bo'lsa-da, ushbu jarayonning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu muammoni hal etish pedagogika oliygohlari jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarida sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasini ya'ni tibbiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, uning modelini yaratish hamda uning samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni aniqlash zaruratini tug'diradi.

Natijalar: Pedagogika oliygohi talabalarining sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasi - bu kelajakdagi pedagoglarning sog'likni saqlash bilan bog'liq faoliyatni malakali amalga oshirish, tahlil qilish va korrigatsiya qilishga tayyorligi bo'lib, bunda barqaror sog'lom turmush tarzi motivatsiyasi va ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning jismoniy, ruhiy hamda ma'naviy sog'lig'ining birligini qabul qilish asosida amalga oshiriladi.



Sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasini shakllantirish modeli - bu pedagogika institutining fakultetlarida ushbu jarayonni amalga oshirish yo'llari, mexanizmlari va imkoniyatlarini (shaxsiy, mazmuniy va tashkiliy) nazariy tasavvuridir. Model maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-faoliyat va natijaviy-diaagnostik bloklarni o'z ichiga oladi, ular sog'lom turmush tarzini saqlash faoliyatining o'ziga xosligini aks ettiradi va kelajakdagi pedagoglarning professional tayyorgarligi jarayonida izlanayotgan kompetentsiyaning shakllanishiga olib keladi.

Modelning samarali amalga oshirilishi quyidagi shart-sharoitlar majmuasi orqali ta'minlanadi:

Professur-o'qituvchilar tarkibini sog'likni saqlash va sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasini shakllantirish muammosi bo'yicha maqsadli nazariy-metodik tayyorlash;

Talabalarni oliy ta'lim muassasasida sog'lom turmush tarzini saqlash kompetentsiyasini shakllantirish jarayonida metodik qo'llab-quvvatlash;

Talabalarni auditoriya, auditoriyadan tashqari va o'quv jarayonidan tashqari faoliyatda sog'lom turmush tarzini saqlash faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorlashning uzviyligini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, kelajakdagi jismoniy madaniyat o'qituvchisining maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga tayyorligi uning kasbiy faoliyatida eng muhim va zarur shartlardan biridir. Chunki hozirgi davrda inson salomatligini saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga harakat faoliyatini o'rgatuvchi, balki ularning ongida sog'lom turmush tarziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2. Березовская Р.А. Отношение к здоровью // Здоровая личность / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Речь, 2013. - Б. 214-244.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA LOYIHA ISHLARI FOYDALANISH VA UNGA QIZIQTIRISH MASALALARI

J.A. RO'ZIMATOV,

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Bugungi kunda juda ko'plab ta'limiy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha olimlarning tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunday texnologiyalardan biri loyiha va loyihalash texnologiyasini kiritish o'rinli. Mazkur maqola kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda loyiha ishlari foydalanish va unga qiziqtirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *loyiha ishlari, o'quvchilarni qiziqtirish, tabiat, tabiiy savodxonligini rivojlantirish.*

This article presents the problems of forming a culture of using social networks among students of a general secondary school. Also, the structure of forming a culture of using social networks among students in extracurricular processes and its practical effectiveness are proven.

Key words: *social network, culture, structure, experimental-testing, mathematical-statistical analysis.*

O'quvchilarga tabiatni tanishtirishda ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularga uning atrofidagi o'rab turgan tabiat haqidagi tushuncha hosil qilish bilan bir qatorda uning eng oliy qadriyat ekanligini anglatib boriladi. Bugungi kunda biologiya darslarida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish va ularni zamonaviy ta'lim usullarini o'zlashtirish asosida mustaqil faoliyatga yo'naltirish masalasi ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Ta'lim jarayonini rejalashtirish yoki loyihalash – bu tizimli jarayon bo'lib, u orqali o'qituvchilar o'quvchilarning bilim olishini osonlashtirish uchun o'quv faoliyatini nazarda tutadi, tashkil qiladi va amalga oshiradi. U o'qituvchilar uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi, ularning qiziqarli va mazmunli o'rganish tajribasini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini boshqaradi.

Darslarni diqqat bilan loyihalash va tashkil qilish orqali o'qituvchilar o'qitish samaradorligini optimallashtirishi va o'quvchilar natijalarini yaxshilashi mumkin. Darsni rejalashtirishning asosiy maqsadi samarali o'qitish va o'quvchilarni o'rganishini qo'llab-quvvatlovchi tizimli asosni ta'minlashdir.

Yaxshi ishlab chiqilgan dars o'qituvchilar shunchaki mazmun yoki faoliyatni etkazib beruvchilar emas, balki tushunish murabbiylaridir. Ular nafaqat o'qitishni, balki o'rganishni ta'minlashga qaratilgan, ular har doim o'quvchi tomonidan muvaffaqiyatli ma'no yaratish va uzatishni maqsad qilib qo'yadilar va tekshiradilar.



Mavzu tanlash va o'quvchi-o'qituvchi bilan individual ishlashdan so'ng tadqiqot mavzularining omma oldida taqdimoti o'tkaziladi, bu yerda o'quvchilar o'zlarining bo'lajak loyiha ishlarining maqsad va vazifalarini taqdim etishadi va o'z ishlari rejasini gapirib berishadi. Bunday faoliyat psixologik jihatdan o'quvchilarning shaxsiy «men»larini tug'ri shakllanishiga, o'z yutuqlarini ko'rsata olishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalanishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotchilikka yo'naltirish asosida loyiha ishlari mavzularini oldindan o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirish xususiyatlari asosida tanlashimiz maqsadga muvofiq. Bu borada o'quvchilarning ishini bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirib borish va unga mas'uliyatli yondashishni talab qilish zarur. O'qituvchilar o'quvchilarning loyiha ishlarini amalga oshirish bosqichlarini doimiy nazorat qilib borish bilan birga, uni bajarish ko'nikmalarini rivojlanishini kuzatib boradi.

Tanlangan mavzular natijalariga ko'ra har bir o'quvchi uchun individual reja tuziladi. Mazkur reja asosida o'quvchilar biologiyadan zarur adabiyotlarni topish, o'rganish va o'qituvchi bilan tahlil qilish, tajriba ishlarini tashkil etish, laboratoriya xonalarida foydalanish talablarini, eksperimentlarni qo'yish, kuzatish va natijalarni yozib borish, tadqiqot davomidagi natijalarni daftarga ko'chirish vazifalarini bajarib boradi. Shuningdek, biologiya o'qituvchilari o'quvchini keyinchalik referat, maqola yozishga, tadqiqotchilik ishiga o'rgatish bo'yicha ish olib boriladi.

Har bir loyiha asosida ishlayotgan o'quvchining individual rejalarini haftada bir martalik uchrashuvlar tashkil etiladi. Tadqiqotchilik ishini tashkil etish o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quvchining sinfdan tashqari mashg'ulotlarida va to'garaklardagi faoliyati hisobiga amalga oshiriladi. Lekin hozirgi kunda o'quvchilarning ilmiy faoliyatga yo'naltirish dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turgan bir vaqtda tadqiqot ishlari uchun alohida soatlar ajratish va bu borada o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etilayotgan faoliyatini ham to'g'ri baholash va rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Zero, umumta'lim maktabidagi kichik tadqiqotchilar, ertaga kasb-xunar kollejariga, akademik litseylarga, oliy o'quv yurtlariga borar ekan, birinchi galdan ulardagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini kompetensiyaga aylantirilishi, uni rivojlantirish uchun darsda, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning har tomonlama bilim, ko'nikmaga ega bo'lishiga uchun asosiy poydevor quyilgan bo'lishi lozim. Bunday sharoitda ilm fanga yo'naltirish o'quvchilarni olimpiadalar, har xil bosqichma-bosqichli tanlovlar, musobaqalarda



ishtirok etishga nafaqat qiziqtiradi, balki ularni bo'sh vaqtlarini unumli foydalanishga o'rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'quvchining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlanib borishi turli tanlovlarda ishtirok etish, ta'lim faoliyatida to'g'ri motivasiya olishga imkon beradi, axborotni mustaqil izlash, to'plash, qayta ishlash va undan foydalanish, yangiliklarni o'ziga xos metod asosida o'zlashtirish, tajriba so'nggida o'z fikrini mustaqil himoya qila olishda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, kichik loyihalarda tadqiqot o'tkazish asosida axborotni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, yangi bilimlarni olish maqsadida interpretatsiya qilish o'quvchidagi tadqiqotchilik ko'nikmasini bosqichma-bosqich kompetensiyaga aylanishidagi dastlabki ilmiy faoliyatning boshlanishi desak to'g'ri bo'ladi.

Loyiha uslubini o'quv jarayoniga joriy etish maktab o'quvchilarida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, kognitiv qiziqishni rivojlantiradi va uy vazifasini mustaqil bajarishga o'rgatadi.

«Loyiha usuli – bu shaxsiy yo'naltirilgan texnologiyalardan biri, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib, u o'quv loyihasi muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni o'rganilayotgan tadqiqot ishiga muammoli yondashuvini, ishni tashkil etish shakllarini, tadqiqot, qidiruv va taqdimot boshqa usullarini o'zida birlashtiradi» [25; -b. 24-28].

Loyiha usuli muammoni (texnologiyani) batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish imkonini beradi, buning natijasida ma'lum bir tarzda ishlab chiqilgan real, amaliy natija bo'lishi kerak. Mazkur usul vositasida o'quvchilar asta-sekin murakkab amaliy vazifalarni rejalashtirish va bajarish orqali bilim olish ko'nikmalari shakllanib boradi.

O'quvchilarda obyektiv va subyektiv bilim va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xarakter xususiyatlari, intellektual va jismoniy qobiliyatlar, irodaviy fazilatlar va ijodiy qobiliyatlar bir butunlikda shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, loyiha usuli quyidagi afzalliklarga ega [68, -b. 113]:

- o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini maksimal darajada rivojlantirish va o'zini o'zi anglashi;
- o'qituvchi rolini o'zgartirishi;
- kichik va katta jamoalarda ishlash va jamoaning shakllanishi;
- fanlararo aloqadorlikni saqlash;
- o'rganish va izlanish uchun motivatsiyani oshirish;



– o‘quv vositalarining xilma-xilligi va h.k.

Loyiha usulining o‘quvchi shaxsini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglashiga ta‘siri uning muhim xususiyatlari insonparvarlik, har bir o‘quvchiga e‘tibor va hurmat, ijobiy munosabatni yaratishga asoslangan bo‘lib, u nafaqat o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan bilim, balki shaxsiy rivojlanishda ham e‘tibor qaratadi.

Loyiha usulini amalga oshirish o‘qituvchi boshqarish pozitsiyasini o‘zgarishiga olib keladi, uning tayyor bilim beruvchi sifatidagi harakati o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim faoliyatining tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxs roli bilan almashinadi. Bu holatda o‘qituvchining maslahatchi, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi sifatidagi roli ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Agar u bolalar biror narsani noto‘g‘ri bajarayotganini ko‘rsa, u maslahat berishdan voz kechishi va o‘quvchilardan savollar kutishi kerak. Agar ko‘plab o‘quvchilar uchun shunga o‘xshash muammolar yuzaga kelsa, unda muammoni jamoaviy ko‘rib chiqish uchun kichik ilmiy seminar – maslahatlashuv o‘tkazish tavsiya etiladi.

A.A.Bogomolovning tajriba ishlaridan ma‘lumki, maktab o‘quvchilari loyihani bajarishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo ular ob‘ektiv xususiyatga ega va ularni hal qilish metodikaning pedagogik vazifalaridan biridir. Sinfdagi psixologik iqlim ham o‘zgaradi, shuning uchun o‘qituvchi o‘zining o‘quv-tarbiyaviy ishlarini, o‘quvchilar tadqiq ishini izlanish, tadqiqot va ijodiy xarakterdagi turli xil mustaqil faoliyat turlariga yo‘naltirishi lozim [28; -b. 35-38.]

Loyiha davomida maktab o‘quvchilari noaniqlik muhitiga tushib qolishadi, bu esa ularning bilim faolligini faollashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, loyiha usuli o‘quvchiga jamoada muhim shaxs sifatini shakllantirishga imkon beradi, lekin bunday darajaga erishish faqat harakatda rivojlanadi va og‘zaki o‘rganish mumkin emas. Bu, birinchi navbatda, kichik jamoa ishlaydigan guruh loyihalariga taalluqlidir va birgalikdagi faoliyat jarayonida jamoada ishlash, yechim tanlash uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish va faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obuxov A.S. Tadqiqot faoliyati o‘smirning madaniy makonga kirishining mumkin bo‘lgan usuli sifatida: O‘quvchilarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish: Uslubiy to‘plam / A.S. Obuxov. - M.: Xalq ta‘limi, 2001. - B.48-63.

2. Qaraxonova L.M. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish// «Xalq ta‘limi» j. № 3. -Toshkent, 2023 yil.



INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARDA KOMPETENT YONDASHUV ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

B. S. ERNAZAROV,

Samarqand viloyati Nurobod tumani

51-umumta'lim maktabi direktori, xalq ta'limi a'lochisi

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan oliy ta'limning davlat ta'lim standartini qabul qilinishi oliy ta'lim, o'quvchi, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan integratsiyalashuv natijasida kompetentli fikrlovchi yoshlar vujudga kelganliklari hamda ushbu yondashuvlar tklif va tavsiyalar bildirildi.

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, maqsad, cho'llanish, ko'nikma, malaka, kompetensiya, me'yor, pedagogik tizim, pedagogik muammo, prinsip, metod.*

This article shows that the adoption of the state educational standard of higher education based on a competency-based approach has resulted in the emergence of competent thinking youth as a result of the integration of higher education, students, science and production, and provides suggestions and recommendations on these approaches.

Key words: *integrative approach, goal, desertification, skills, qualifications, competence, norm, pedagogical system, pedagogical problem, principle, method.*

Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan oliy ta'limning davlat ta'lim standartini qabul qilinishi oliy ta'lim, o'quvchi, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan integratsiyalashuv natijasida kompetentli fikrlovchi yoshlar vujudga kelganliklari bilan izohlanadi.

Undan tashqari, butun dunyoda bo'layotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa va Amerika qit'alaridagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'limga oid islohotlar ta'sirida O'zbekistonning kompetensiyali ta'lim strategiyasi yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogikada o'ziga xos innovatsion yondashuv bo'lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi. Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy, texnologik islohotlarga bog'liq. Bu islohotlarning barchasi o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlanti-rishga asoslangan.

Ma'lumki, Integratsiya (lot. integratio – tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan olingan) – 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining



o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Integrativ yondashuv – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash jarayonidir. Bu yondashuv o‘rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga tizimli yondashish, o‘quvchilar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Integrativ yondashuv ta‘lim-tarbiya jarayonlariga kompleks yondashuv, tizimiy yondashuv, tizimiy tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanishda qo‘l keladi.

Integrativ yondashuv ta‘lim va tarbiyani iyerarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy samaralarni kafolatlaydi.

O‘quv jarayoni professor-o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida ta‘lim oluvchilarga ma‘lum bir sharoitda, muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta‘sirini va ta‘lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi, texnologiyalashgan ta‘limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Integrativ yondashuv bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o‘z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Integratsiya – ta‘lim jarayonida ta‘lim berishning maqsad va vazifalarini bir butunlikda birlashtirishdir.

Integrativ funksiya – bu funksiya oliy ta‘lim va ishlab chiqarishni bog‘lovchi bo‘g‘imdir. Bunda oliy ta‘lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, me‘yor, pedagogik tizimlarni o‘zida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o‘quvchilarda har xil predmetlarda o‘tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo‘ladigan hodisalar, tushunchalar, g‘oyalar, nazariyalar orasidagi o‘zaro integratsiya va har tomonlama bog‘lanish borligini o‘rnata olish kompetensiyalarni rivojlantirish; bu bog‘lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta‘minlash; o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik masalalarini nazariy to‘g‘ri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq



yechishda, turli o'quv predmetlarini o'rganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik, tashkiliy-pedagogik tizimlar maqsadi, mezon va vazifasini to'g'ri rivojlantirish kompetensiyalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

Tadqiqot ishlarini bajarishda va turli fanlardagi ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va to'ldirishda integratsiyalash jarayoni doimo qo'l keladi va ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

O'qitish mazmunini integratsiyasi – o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari, bilimlar sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Veterinariya oliy ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan, tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar, barcha fanlarni veterinariya fanlari bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo'ladi. Ikkinchidan, oliy ta'limda veterinariyaga oid tadqiqotchilik kompetensiyalari faqat ma'lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Chunki, bironta fan doirasida uni to'liq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda turli fanlarni o'qitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas. Ular fanning o'ziga xos vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi. Masalan, radiobiologiya kursida o'quvchilar radioaktiv moddalar va ularning tirik organizmga ta'sirini o'rganadilar. Fizkolloid kimyo fanida kimyoviy elementlar, ularning xususiyatlari, atmosferaga kimyoviy moddalarning chiqarilishi va uning ta'sir qilishi, suvlar, mineral moddalar va o'g'itlar hamda boshqa tabiiy hodisalar haqidagi tushunchalar keltiriladi. Hayvonlar anatomiyasida tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligi, biosfera va boshqalar o'rganiladi. Lotin tili va veterinariya atamaları fanida uchraydigan chorvachilik va veterinariya sohasidagi so'zlarning ma'nosi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari o'rganiladi.

Demak, veterinariya sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotchilik faoliyati fanlararo xarakterga ega va tadqiqotchilik kompetensiyalari turli xil aspektlarda, ya'ni lotin tili va veterinariya atamaları, biofizika, hayvonlar anatomiyasi, sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari, veterinariya kasb etikasi, lotin tili va farmatsiya terminologiyasi, hayvonlar morfologiyasi, biologik kimyo, biofizika va radiobiologiya, biologiya va genetika va boshqa fan yo'nalishlarining o'zaro uyg'unligida o'zlashtiriladi.

O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlanti-rishda o'qitishning yangi texnologiyalari rivojlanishi tez o'zgarayotgan axborotlashgan



jamiyatda internet saytlari, xalqaro ta'limiy aloqalar, ta'lim muassasalarining yagona axborot fazosi muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo ta'lim asosida tadqiqotchilik faoliyati oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini o'quv-tadqiqot masalalariga bir xilda yondashishga chorlaydi. Shu sababli o'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lishi, balki turli uzviy mutaxassislikka oid muammolar topishning zamonaviy uslublariga ega bo'lishi lozim. Ushbu holat ishimizning mohiyatini bildirdi, chunki, o'quvchilarning tadqiqotchilik layoqatini asosiy yo'nalishlari rivojlanishini aks ettirish, ushbu jarayonda umumlashtirilgan ta'lim asosida veterinar mutaxassisi shaxsini shakllantirishning to'kis jarayoni sifatida veterinariya ta'limi doirasida o'zini samarali namoyon etishga qodir, kasbiy pedagogik faoliyatning barcha turlarini bajarish imkoniyatiga ega shaxs tarbiyalanadi.

O'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltirishda muayyan ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsad hisobga olinadi.

Ta'lim maqsadlarini qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya qilinadi:

1. Mavjud ehtiyoj va muammolarning tahlili maqsadni qo'yishning bosh asosi bo'lib xizmat qilishi, birinchidan, dastlabki imkoniyatlar, vositalar, ikkinchidan, zahiralarni kabilar;

2. Maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb bo'lishi;

3. Maqsadlar murakkab, biroq real bo'lishi;

4. Maqsadlarning aniq (istalgan natijaning aniq darajasi va unga erishish muddati ko'rsatilgan holda) shakllantirilgan bo'lishi (ularga erishganlikni aniqlash shuncha oson bo'ladi);

5. Maqsadlar diagnostik, rag'batlantiruvchi, undovchi xarakterga ega bo'lishi;

6. Maqsadlar o'quvchining oldida turgan vazifalariga mos kelishi va yaqin kelajakdagi rivojlanish doirasida bo'lishi;

7. Hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha qatnashchilariga ma'lum, ular tomonidan tushunilgan va anglangan holda qabul qilingan bo'lishi (bu jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini talab qiladi);

8. Kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad va intilishlarga bo'ysungan bo'lishi.

Bu talablar ta'lim maqsadlarining hayotiyligini ta'minlashda muhim masala sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi masalada biz Sohada raqamli texnologiyasi fanining yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish fani bilan aloqasini tadqiq etdik:



Yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish darsida tegishli miqdoriy ko'rsatkichlarni olishning samarali usulidan biri – bu muammoli mazmundagi masalalarni tuzish va yechishdir.

O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida matematik ifodalardan foydalanish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi, raqamlarni taqqoslash, solishtirishga o'rgatadi hamda bu ularni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Raqamlar ustida ishlashni xush ko'ruvchi o'quvchilar faolligini yuqori darajada ta'minlaydi. Tabiiy jarayonlarni baholash va bashoratlash ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Aynan tabiiy fanlarda raqamlar ustida eng ko'p ishlanadi va shu bilan birgalikda ular o'zgaruvchidir. Hozirgi axborotlar hajmi ko'paygan va globallashtirish jarayonlari kuchaygan bir davrda professor-o'qituvchi o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning turli fanlardan olgan bilim va malaka, kompetensiyalariga tayanishi, har xil ma'lumotlardan foydalana olishga o'rgatishi zarur. Bu jarayonda o'quv fanlaridan beriladigan axborotlarni tizimlashtirish, masalaga majmuali yondashgan holda inson va tabiat o'rtasidagi aloqalarni ochib berish axborot texnologiyalari bilan fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.

2. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.

3. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Г. А. Таянч компетенциялар асосида о'quvchilarning izlanishi, tadqiqot madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasi. *Namangan davlat universiteti-2021*, 1, 528.



SHAXS ONGIDA GENDER MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI ZAMON TENDENSIYALARI

D.I.ALIBEKOV,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

Ushbu maqolada shaxsda gender madaniyatini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati hamda uning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan, Gender madaniyati tushunchasining mohiyati, uni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining o'rni va ijtimoiy muhitning ta'siri tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *gender madaniyati, shaxs, tenglik, tarbiya, rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy qadriyatlar, pedagogik yondashuv.*

В статье рассматриваются содержание, значение и тенденции развития формирования гендерной культуры личности, анализируется сущность понятия гендерной культуры, роль системы образования в ее формировании, влияние социальной среды.

Ключевые слова: *гендерная культура, личность, равенство, образование, тенденции развития, социальные ценности.*

The article examines the content, significance and development trends of the formation of an individual's gender culture, analyzes the essence of the concept of gender culture, the role of the education system in its formation, and the influence of the social environment.

Key words: *gender culture, personality, equality, education, development trends, social values, pedagogical approach.*

Yetakchi xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari shu jumladan xalqaro institutlarida o'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ularning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish hamda gender madaniyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida gender tenglikni ta'minlash, o'quvchi shaxsining qadr-qimmatini hurmat qilish va jinsidan qat'i nazar, ularning teng huquqli rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, turli millat va madaniyatlarda shakllangan qadriyatlar, mental xususiyatlar hamda diniy yoki tarixiy omillar inobatga olinib, gender tarbiyasini zamonaviylashtirish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy gender pedagogikasi nafaqat G'arb mamlakatlarida, balki Sharq xalqlarining madaniy qadriyatlari bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda. Ilmiy manbalarda gender tenglikni ta'minlashning yagona modeli mavjud emasligi ta'kidlanadi. Har bir jamiyat bu jarayonda o'zining milliy an'analari, ma'naviy



qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan holda o'ziga xos yondashuvni tanlashi zarurligi qayd etiladi. Shu bois, zamonaviy pedagogika oldida turgan muhim vazifalardan biri – genderga oid yondashuvni oqilona qo'llash, uni turli madaniyatlarda mavjud qadriyat tizimlariga moslashtirishdir. Ta'lim jarayonida gender farqlari va o'xshashliklarini hisobga olish o'quvchi shaxsining individual xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir bola – o'g'il yoki qiz farzand bo'lishidan qat'i nazar – o'ziga xos psixologik, fiziologik va ijtimoiy imkoniyatlarga ega. Shu sababli, ularning o'quv faoliyatini tashkil etishda bu jihatlarni hisobga olish pedagogik zarurat sifatida qaralmoqda.

Gender farqlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar psixologiya va pedagogika fanlarida keng yoyilmoqda. Bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar, asosan, jinsiy tarbiya, shaxsning psixik rivojlanish bosqichlari va ularning ta'lim jarayonidagi ifodasi bilan chambarchas bog'liq. Jinsga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi esa o'quvchini kelajak hayotga har tomonlama tayyorlashga xizmat qiladigan ta'limiy, tarbiyaviy va ma'rifiy vositalar majmuasidir. Bugungi kunda o'quv jarayonida gender farqlari va o'ziga xosliklarni inobatga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, didaktikada bu masalaning ilmiy asoslari hali to'liq ishlab chiqilmagan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, o'quv-biluv jarayonida gender jihatlarni e'tiborga olmasdan turib, ta'lim natijasining yuqori samaradorligiga erishish mushkul. Shu bois, zamonaviy ta'limga o'g'il va qiz bolalarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriy holga aylanmoqda.

«Gender» atamasi ilk bor 1968-yilda amerikalik psixolog olim Robert Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u «jins» tushunchasiga ijtimoiy va madaniy ma'no yuklaydi. Biologik nuqtai nazardan jins anatomik va fiziologik belgilar asosida farqlansa, gender tushunchasi jamiyatda shakllangan ijtimoiy rollar, me'yorlar va xatti-harakatlar tizimi bilan bog'liqdir. Masalan, o'g'il va qiz bolalarning o'zaro munosabatlari, ular egallaydigan rollar va ular uchun jamiyat tomonidan belgilanadigan me'yorlar gender tizimining ifodasidir. O'g'il va qiz bolalarning o'zaro hamkorligi tushunchasi R. Xof tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u bu jarayon orqali o'quvchilarning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu ma'noda, gender jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda pedagogika fanida erishilayotgan muhim natijalardan biri – ta'lim jarayonini gender tenglik va farqlar asosida tashkil



etish imkoniyatlarini ochilayotganligi hamda ushbu yondashuvlar ta'limni insonparvarlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish muhim vazifadir. Yangi o'quv dasturlarida o'g'il va qiz bolalar tengligini ta'minlash, barcha fanlarda o'quv materiallarini gender tenglik va farqlar nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi o'quv-metodik materiallar, didaktik vositalar va nazorat usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Gender tushunchasi jins bilan bog'liq bo'lsa-da, u faqat biologik farqlar bilan cheklanmaydi. Har bir insonda erkaklik (maskulinlik) va ayollikka (femininlik) xos sifatlar turlicha darajada mavjud bo'ladi. Shu bois, jamiyat, tarix va madaniyat omillari ta'sirida gender tiplari va sifatleri xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. So'nggi o'n yilliklarda «gender» atamasi bilan bir qatorda «gender munosabatlari», «gender tenglik», «gender madaniyat», «gender taraqqiyot», «gender pedagogika» va «gender psixologiya» kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, so'nggi yigirma yilni bemalol «gender tadqiqotlari davri» deb atash mumkin. Biroq bu yo'nalishdagi izlanishlar chuqur tahlil va ilmiy sintezni talab etadi. Chunki gender masalalariga yuzaki yondashuv yoki uni sun'iy chuqurlashtirish jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlarni kuchaytirishi mumkin. Shu bois, gender tadqiqotlarining asosiy maqsadi – jinslararo o'zaro hurmat, hamkorlik va tenglik tamoyillarini mustahkamlashdan iborat bo'lishi zarur.

Pedagogika fanida gender tenglik va farqlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Bunda gender madaniyat ustuvorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari:

- o'quv materialini tanlashda o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'ziga xoslikni farqlash;
- o'g'il va qiz bolalarning alohida o'ziga xos faoliyatini rivojlantirish;
- muayyan jinsga mos keladigan o'quv faoliyatini tashkil etish;
- har bir jinsning o'ziga xos faoliyat turini shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini tanlash;
- ta'lim jarayonida qat'iy, didaktik jihatdan shakllangan gender interpretatsiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni shakllantirish.

Ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalarga mehnat ta'limi berish va ularni kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda o'quvchilarning gender jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim



ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- o'g'il va qiz bolalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o'quv harakatlarini tashkil etish;
- ularni gender o'xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;
- o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalarning alohida-alohida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- o'g'il va qiz bolalarning shaxsiy qiziqishlariga muvofiq keladigan o'quv faoliyati turlarini tashkil etish;
- aniq o'quv vaziyatini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatishni ta'minlash kabilar.

O'g'il va qiz bolalarning har biri qanday bo'lishi, qanday faoliyat turini egallashi ta'lim sifatiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatleri, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda o'smir yoshdagi o'quvchilar ongiga gender me'yorlar, mezonlarni singdiradilar. Bu qarashlar o'smir yoshdagi o'quvchilarda haqiqiy ayol, haqiqiy erkak qanday bo'lishi to'g'risida dastlabki tasavvurlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Keyinchalik ushbu gender me'yorlar o'quvchilarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirish bu - o'quvchi tomonidan o'zi yashaydigan jamiyat gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirishdan iborat.

Inson salohiyatini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun uning psixologik, fiziologik xususiyatlarini inobatga olish zaruriyati kun tartibiga ko'tarilmoqdaki, undan unumli foydalanish hamda to'g'ri yo'naltirish bugungi didaktikaning asosiy fazifalari sirasiga kirishi kerak. Maktab davrida o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishi, ruxiy olami va fiziologik o'sishi turlicha kechadi. Bu o'zgarish va o'ziga xosliklarni inobatga



olish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga xar ikkala jins vakillarining o'zlarini to'laqonli namoyon etishlariga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida gender madaniyatini shakllantirish shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda jinsidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini qaror toptirishdir. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, gender tenglikni ta'minlashning yagona universal modeli mavjud emas. Har bir jamiyat bu jarayonda o'zining milliy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos yondashuvni shakllantirishi lozim. Ta'lim tizimida o'g'il va qiz bolalarning individual psixologik hamda fiziologik farqlarini hisobga olish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, ularni kelajak hayotga puxta tayyorlaydi. Shuningdek, o'quv dasturlari, metodik materiallar va didaktik yondashuvlarni gender jihatdan takomillashtirish orqali shaxsda ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Demak, gender madaniyatini shakllantirish bu nafaqat ta'limning dolzarb yo'nalishi, balki inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatda barqarorlik va tenglikni ta'minlashning eng muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. Под ред. В.В.Давыдова. М.: Педагогика, 1991. 480 с.
2. Гапова Е.А. Антология гендерной теории / Е.А. Гапова. - М.: Русская панорама, 2002. - 344 с.
3. Gender muammolar va rivojlanish. Gender tengligi orqali huquqlar, resurslarni olish va o'z manfaatlarini izhor qilish imkoniyatlarni rivojlantirishni rag'batlantirish / Ingliz tilidan tarjima. - M., 2002.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

SH.B.XASANOVA,

*Navoiy innovatsiyalar universiteti
«Tabiiy va texnika» fanlar kafedrası dotsenti*

Maqolada o'quvchilar kompetentligini shakllantirishda xorijiy davlatlar, asosan Singapur tajribalaridan foydalanish, 5E modelini qo'llash metodikasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Jarayon ko'nikmalari, 5E modeli, jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash, kuzatish, taqqoslash, tasniflash.*

В статье освещены методы формирования компетентности учащихся с использованием зарубежного опыта, в основном сингапурской модели, а также методика применения модели 5E.

Ключевые слова: *процессуальные навыки, модель 5E, вовлечение, исследование, объяснение, применение, наблюдение, сравнение, классификация.*

The article explains the methods of developing students' competence by using foreign experience, mainly based on the Singapore model, and the methodology of applying the 5E model

Key words: *Key words: process skills, 5E model, engagement, exploration, explanation, application, observation, comparison, classification.*

Hujjatlarni tahlil qilish laboratoriyalarning moddiy-texnik va metodik jihatdan yetariligidini aniqlash imkonini berdi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan 10 ta akademik litsey laboratoriyalarining o'rtacha jihozlanganlik darajasi 80% ni tashkil etadi. Mikroskoplar va asosiy biologik jihozlarning yetishmasligi, ba'zi laboratoriyalarda reagentlar zaxirasining yetarli emasligi aniqlangan. Laboratoriya mashg'ulotlari haftasiga o'rtacha hisobda 1,2 marta o'tkaziladi, bu rejalashtirilgan haftasiga 2 marta mashg'ulot talabidan pastligini ko'rsatadi.

Ekspertlar tomonidan baholash quyidagi natijalarni berdi:

I. Jihozlanganlik darajasi: o'rtacha 3,8/5 ball. Ba'zi jihozlar eskirgan yoki nosoz holatda.

II. Amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi: o'rtacha 4,0/5 ball. Mashg'ulotlar sifat jihatdan yuqori, ammo chastotasi yetarli emas.

III. Xavfsizlik: o'rtacha 4,2/5 ball. Xavfsizlik talablari aksariyat laboratoriyalarda bajarilgan.

IV. Metodik tayyorgarlik: o'rtacha 3,9/5 ball. O'qituvchilar tajribali, ammo qo'shimcha metodik treninglarga ehtiyoj mavjud.

Ekspert baholash laboratoriyalarining kuchli tomonlari – xavfsizlik va amaliy



mashg'ulotlar sifati, zaif tomonlari esa jihoz yetishmovchiligi va mashg'ulotlar chastonasining pastligi ekanini ko'rsatdi.

Monitoring metodi laboratoriya faoliyatining dinamik holatini aniqlashga yordam berdi. So'nggi bir yil davomida:

I. Jihozlar yangilanish chastotasi o'rtacha 2 marta (12 oy davomida) bo'lib, bu yetarli emasligi aniqlangan.

II. Laboratoriya mashg'ulotlari chastotasi haftasiga 1 marta bo'lib, rejalashtirilgan 2 marta talabidan past.

III. O'quvchilar ishtiroki o'rtacha 70%, bu laboratoriya mashg'ulotlariga motivatsiyaning o'rtacha darajada ekanini ko'rsatadi.

IV. Texnik xizmat ko'rsatish muntazam amalga oshirilgan (o'rtacha 4 oyda bir marta), bu laboratoriya jihazlarini saqlashda samarali mexanizm hisoblanadi.

Monitoring natijalari laboratoriya resurslaridan foydalanish samaradorligi va mashg'ulotlarning yetarliligini vizual ko'rsatkichlar bilan tasdiqladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, akademik litseylarda biologiya laboratoriyalari moddiy-texnik jihatdan yetarli, amaliy mashg'ulotlar sifati yuqori bo'lsa-da, mashg'ulotlar chastotasi va jihoz yangilanishi talabga to'liq javob bermaydi. Shuningdek, o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlaridagi ishtiroki ham sezilarli darajada oshirilishi zarur. Ushbu natijalar metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, laborato-riyalarni takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish strategiyasini belgilashda asosiy ilmiy baza sifatida xizmat qiladi.

Hujjat tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat akademik litseylarda laboratoriyalar moddiy-texnik jihatdan yetarli bo'lsa-da, jihazlar va reagentlar yetishmovchiligi mavjud. Bu natija xalqaro tadqiqotlarda ham tasdiqlangan bo'lib, laboratoriyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'pincha resurslarning yetarliligi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi (Alkan et al., 2020; Smith, 2019). Shu bilan birga, laboratoriya mashg'ulotlarining chastotasi rejalashtirilgan standartlardan past bo'lib, bu o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarning yetarli chastotada tashkil etilishi, shuningdek, laboratoriya jihazlarining muntazam yangilanishi o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ekspert baholash natijalari laboratoriyalarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim rol o'ynadi. Mutaxassislar laboratoriyaning xavfsizlik talablari va metodik tayyorgarlik darajasini yuqori baholashdi, ammo jihazlarning eskirganligi va amaliy mashg'ulotlar chastotasi yetarli emasligi zaif tomon sifatida qayd etildi. Bu holat laboratoriya faoliyatining barqarorligini ta'minlash va o'quvchilarni laboratoriya jarayonlariga faol jalb qilish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ekspertlar laboratoriya mashg'ulotlarining sifatini oshirish uchun qo'shimcha metodik treninglar va yangilangan laboratoriya qo'llanmalarini joriy



etishni tavsiya etdilar. Bu tavsiyalar ilg'or pedagogik tajribalar bilan hamohang bo'lib, o'quv jarayonining amaliy jihatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Natijalarni xalqaro pedagogik tadqiqotlar bilan solishtirganda, akademik litseylarda laboratoriya jihozlari va amaliy mashg'ulotlar chastotasi masalalari umumiy muammo sifatida qayd etilgan. Masalan, bir qator tadqiqotlarda (Johnson & Lee, 2021; Chen et al., 2018) o'quv laboratoriyalarida jihozlarning yetishmovchiligi va laboratoriya mashg'ulotlarining past chastotasi o'quvchilar amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni cheklashi ko'rsatilgan 4. Shu bilan birga, laboratoriya faoliyatining sifatli tashkil etilishi va muntazam monitoring pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muhokama davomida shuni ta'kidlash lozimki, laboratoriyalarning mavjud holati faqat jihozlar va mashg'ulot chastotasi bilan chegaralanmaydi. O'qituvchi-laming metodik tayyorgarligi, darslar rejasining amaliy mashg'ulotlarga mosligi va o'quvchilarning faol ishtiroki laboratoriya ishlarining natijaviyligini belgilovchi muhim omillardir. Shu nuqtai nazardan, laboratoriya faoliyatini takomillashtirish strategiyasi resurslar yangilanishi + metodik tayyorgarlik + monitoring uchlugini o'z ichiga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurul Aulia, Luthfiana Nurtamara, Laila Munada, Muhammad Rifani Arsyad, Ni Komang Ayu Purwanti, Rumaisha Zahra Hanifa Rokhima - Biology laboratory completeness analysis in high school // Practice of The Science of Teaching Journal: Jurnal Praktisi Pendidikan. Volume 4 Issue 1, May 2025, pp. 38-45.
2. Lestari, H. P., & Supahar. (2020). Effect of science virtual laboratory combination with demonstration methods on lower-secondary school students' scientific literacy ability in a science course. *Heliyon*, 6(12), e05826. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05826>
3. Ahmad, E. P. A., & Nur, R. A. (2024). Eksplorasi penggunaan laboratorium virtual sebagai alternatif praktikum dalam pembelajaran biologi. *Binomial: Journal of Teaching and Learning Mathematics*, 7(2), Artikel 2411. <https://doi.org/10.46918/bn.v7i2.2411>
4. Basri, A. A., Fitri, N., & Arganata, F. Z. (2023). Pelatihan Penggunaan APAR untuk Meningkatkan Kemampuan Penggunaan APAR untuk Kesiap-siagaan Kebakaran pada Civitas Akademik di Poltekkes Malang Tahun 2023. *Jurnal Pengabdian Masyarakat Berkemajuan*, 7(4). <https://doi.org/10.31764/jpmb.v7i4.19617>
5. Elesio, J. (2023). Science laboratory environment and students' motivation as predictors on attitudes towards chemistry lesson. *International Journal of Research and Innovation in Social Science*, 7(5), 123- 130. <https://doi.org/10.47772/IJRISS.2023.7501>



O'QUVCHILARNING DARS DAN TASHQARI O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASINING IMKONIYATI

SH. O. QALANDAROVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

Ushbu maqolada o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etishdagi mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, darsdan tashqari ta'lim jarayonida Google Classroom platformasining didaktik imkoniyatlari, uning o'quvchilar faolligini oshirishdagi o'rni hamda ta'lim sifatini yaxshilashga qo'shadigan hissasi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: *darsdan tashqari ta'lim, o'quv faoliyat, Google Classroom, platforma, to'garak, didaktik vosita.*

В статье рассмотрены проблемы организации внеурочной учебной деятельности учащихся. Также проанализированы дидактические возможности платформы Google Classroom, её роль в повышении активности учащихся и в улучшении качества образовательного процесса.

Ключевые слова: *внеурочная деятельность, учебная активность, Google Classroom, платформа, кружок, дидактическое средство.*

This article discusses the challenges of organizing students' extracurricular learning activities. It also analyzes the didactic potential of the Google Classroom platform, its role in increasing student engagement, and its contribution to improving the quality of education.

Key words: *extracurricular activity, learning process, Google Classroom, platform, club, didactic tool.*

Google Classroom – bu Google tomonidan ishlab chiqilgan bepul veb-ta'lim platformasi bo'lib, unda o'qituvchilar onlayn tarzda dars o'tkazishi, o'quv dasturlarini yaratishi va o'quvchilar bilan qog'ozsiz topshiriqlarni almashishi mumkin. Platforma Google Docs, Sheets va Slides kabi turli G Suite xizmatlaridan foydalangan holda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligini soddalashtiradi [5]. Shuningdek, Google Classroom platforma o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda samarali pedagogik dasturiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Google Classroom yoki Google Class onlayn ta'lim uchun Internet xizmatidir. Bu foydalanuvchiga kurslar yaratish, vebinarlar o'tkazish va o'quvchilarning baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Aslida, Google bir xizmatda bir nechta vositalarini to'plagan. Ular orasida fayllarni saqlash uchun disk, matnli ma'lumotlardan, taqdimotlar, so'rovlarni nashr qilishda Google Docs, video uchrashuvlar uchun xizmat va treningni rejalashtirish taqvimini mavjud.



Google Classroom xizmati bilan ishlagan holda, o'qituvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlarni qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lumki, o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarga ega (introvertlar, ekstrovertlar, vizual, eshitish, kinestetik, raqamli va boshqalar) bo'lib, turli darajadagi mustaqil ishlarni bajaradi. O'quv materialini Google Classroomga joylashtirish orqali o'qituvchi, masalan, o'quvchilarga ma'lumotni ko'rish, tinglash yoki o'qish imkoniyatini berishi mumkin. Shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchilar muloqot o'tkazish, topshiriqlarni bajarilishini nazorat qilishning zarur darajasini aniqlashi, har bir topshiriq uchun ko'proq yoki kamroq batafsil yo'riqnomalar va xatolarga sharhlar yaratishi hamda qo'shimcha ravishda o'quvchilarga topshiriqni bajarish muddatlarini eslatishi mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda vazifalarni tanlashi mumkin, ularga avtonom o'quv faoliyatini shakllantirish uchun muhim bo'lgan fazilatlarini ochish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Tavsiya etilayotgan platforma yordamida fanlardan to'garaklarni masofaviy o'tkazish, uy sharoitida onlayn o'rganish, turli tadbirlarni tashkil etish va o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Fanlardan masofaviy tashkil etilgan to'garaklar va turli tadbirlar bir qancha iqtisodiy tejash imkoniyatiga erishi mumkin. Xususan, sinf xonalar, undagi xarajatlar, o'quvchilarni borish va kelish vaqti, shu kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Shuning uchun to'garaklarni va turli tadbirlarni tashkil etishda Google classroomda platformasidan foydalanish samarali hisoblanadi.

Google classroom platformasidan foydalanib to'garaklar yoki turli tadbirlarni o'tkazish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

1) e'lonlarni joylashtirish, topshiriqlarni namoyish etish, so'rovlar o'tkazish kabi xizmatlarni amalga oshirish mumkin. Mazkur xizmatning aniq afzalligi, unda turli xil materiallarni joylashtirish imkoniyati mavjudligidir [5, 6, 7]:

- haqiqiy matnlar;
- audio va video materiallar;
- Internet manbalariga havolalar va sharhlar.

O'qituvchi bunday kursni har bir guruh uchun alohida yoki bir vaqtning o'zida bir nechta guruhlar uchun ochishi mumkin. Shu bilan birga muammoli topshiriqlarni onlayn muhokama qilib borish imkoniyati ham mavjud.

To'garaklarni, olimpiadalarni, turli ta'limiy tadbirlarni masofaviy tashkil etishda didaktik o'quv vositalari sifatida videodarslar, interaktiv xaritalar, turli topshiriqlar berib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

2) o'quvchilar uchun topshiriqlar berish, tugallangan ishni tekshirish, ular bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllaridan foydalanish imkonini beradi. Mazkur xizmat fanlardan darsdan tashqari ishlarni tashkil etishning uslubiy asoslarini amalga oshirish uchun mos bo'lgan barcha texnik shart-sharoitlarni ta'minlaydi va



o'qituvchiga o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkilotchisi bo'lish va amalga oshirish asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi [7]. Shu bilan birga topshiriqni fayl ko'rinishida umumiy hamda individual berish imkoniyati mavjud. Shuningdek, berilgan topshiriqlarni vaqtini belgilash imkoniyati ham mavjud.

Fan to'garaklarda berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirishga va mustaqil ravishda qaror qabul qilish, o'z ustida ishlash kabi hislatlarini oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun masofaviy to'garaklarni tashkil etishda Google classroom platformasidan foydalanish orqali o'quvchilarga ko'proq topshiriqlarni berib borish maqsadga muvofiq sanaladi. Topshiriqlarni hisobida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- soddalikda murakkablik tamoyillariga tayanish;
- o'quvchining motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- mustaqil izlanishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi.

Ushbu tavsiya etilayotgan qoidalarga amal qilish orqali o'quvchining faniga bo'lgan qiziqishini oshirish va onlayn to'garaklarda faol ishtirok etishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

3) Moslashtirilgan baholash tizimi: O'qituvchilar baholash tizimini tanlashi va baho toifalarini yaratishi mumkin. Agar o'qituvchilar umumiy baholar o'quvchilar uchun ochiq bo'lishini xohlasalar, ular quyidagi tizimlardan birini tanlashlari mumkin:

- jami ball bahosi: o'quvchilar to'plagan umumiy ballarni mumkin bo'lgan maksimal ballga bo'lish;
- kategoriyalar bo'yicha baholash: har bir baho toifasining o'rtacha ballari hisoblab chiqiladi;
- baho qo'yimaslik: agar o'qituvchilar o'quvchilarga baho qo'yimaslikka qaror qilsalar, uni amalga oshirishi mumkin.

Bu kabi imkoniyatlar asosida ochiq, yopiq va PIZA testlarni yaratish hamda ulardan masofaviy foydalanish mumkin. Mazkur joylashtirilgan testlarni o'quvchilarga umumiy hamda individual berish imkoniyati mavjud bo'lib, har bir testni berilgan vaqt oralig'ida cheklash imkoniyati mavjud.

Google classroom platformasiga quyidagi turli xil didaktik testlarni joylashtirish mumkin:

- berilgan savollarga bir nechta javoblar berish;
- obyektlar va rasmlarni belgilash orqali to'g'ri javobni belgilash;
- geografik tushurib qoldirilgan atamalarni, qoidalarni kiritish;
- matritsali ko'rinishdagi javoblarni tanlash.

Tavsiya etilayotgan testlar yordamida o'quvchilarning onlayn bilimini baholash va nazorat qilish, fanga oid tasavvurlarini hosil qilish kabi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Shuning uchun o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatida bilimlarni



mustahkamlashda yopiq va PIZA testlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Shu bilan birga Google Classroom platformasi quyidagi xizmatlarni ta'minlaydi:

- turli fanlar bo'yicha bir nechta kurslarni yaratish;
- bir nechta o'qituvchilarning birgalikdagi ishi, bu fanlararo loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi;
- o'quvchi ma'lumotlarini ko'rish qobiliyati (ism, guruh raqami, fotosurat, elektron pochta manzili) va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish hamda guruhga yangi o'quvchi qo'shish;
- vazifa turini tanlash (savol, topshiriq, e'lon);
- topshiriq qo'yilgan kurs doirasida o'quvchilarni tanlash;
- o'quvchilar bilan ishning borishi va natijalarini muhokama qilishni tashkil etish;
- o'quvchilar topshiriqlarini bajarganligi to'g'risida xabar berish;
- ishlarni avtomatik saralash: tugallangan / tugallanmagan qaytarilgan;
- baholash tizimini tanlash (0 dan 100 ballgacha / bahosiz);
- o'quvchilarning o'quv yutuqlarini jadval shaklida kuzatish;
- topshiriqlarni bajarish muddatlarini belgilash;
- o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan funksiyalarni tanlash (izoh berish, topshiriqlarni nusxalash);
- Google xizmatining ko'plab qo'shimcha vositalaridan foydalanish (tarjimon, marker, imlo tekshiruvi, sharhlar va boshqalar).

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining darsdan tashqari o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda va ularning ijtimoiy tarmoqlarga kirishni olidini olishda hamda fanlarni samarali o'zlashtirishda Google classroom platformasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. - Navoiy, 2023. - 332 b.
2. Shodiyev H.R. Uzluksiz ta'lim tizimida geografiyani o'qitishda axborot ta'lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Navoiy, 2024. - 274 b.
3. Shodiyev H.R. Geografiya fanlarini o'qitishda xorijiy axborot ta'lim muhitlarining amaliy samaradorligi // Elektron ta'lim. - Navoiy, 2023. - № 2. - B. 49-60.



DARSDAN TASHQARI JARAYONLARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULI

A.J.KAMALOV,

Qori Niyoziy nomidagi

TPMI mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muammolari keltirilgan. Shuningdek, darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish tuzilmasi va uning amaliy samaradorligi isbotlangan.

Tayanch so'zlar: *ijtimoiy tarmoq, madaniyat, tuzilma, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil.*

This article presents the problems of forming a culture of using social networks among students of a general secondary school. Also, the structure of forming a culture of using social networks among students in extracurricular processes and its practical effectiveness are proven.

Key words: *social network, culture, structure, experimental-testing, mathematical-statistical analysis.*

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining aksariyatida telefon, smartfon va planshetlar mavjud bo'lib, ulardan o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan samarasiz foydalanib kelmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini susayishiga, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yuzaki bajarishga yoki global tarmoqdan tayyor javoblarni olishga bog'lanib qolmoqda [1]. Shu bois, ayni paytda o'quvchilarni ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish madaniyatini oshirish ta'limning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


O'quvchilarning internetdan samarali foydalanish mexanizmlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish masalalari, o'quvchilarning global tarmoqqa qaramlilikni oldini olish muammolariga doir tadqiqotlar kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning bildirishicha, bugungi globallashuv sharoitida o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish orqali fanga bo'lgan qiziqishi susayishiga, turli jinoiyatlar qilishga, axloqiy tarbiyalari buzilishiga sabab bo'lmoqda. Olimlarning bildirishicha, bu kabi muammolarni yechimlari quyidagi-lardan iborat:

- o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirlarini tushuntirish;
- o'quvchilarning bo'sh qolishiga yo'l qo'ymaslik;



– ta’limga oid ta’lim muhitlarining salmog‘ini oshirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish asosida o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini oshirish uchun quyidagi tuzilmani ishlab chiqdik (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan tuzilma to‘rt bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda o‘quvchilarga videodarslar orqali psixologik ta’lim beriladi. Agar o‘quvchilar videodarslar yordamida olgan psixologik ta’limga doir testlarni 60 % yuqori yechsa ikkinchi bosqichga o‘tkaziladi. Aks holda qayta videolarni tinglash choralari ko‘riladi. Ikkinchi bosqichda fanlarga oid onlayn

to‘garaklar tashkil etiladi. Agar o‘quvchi onlayn to‘garaklarda faol qatnashsa uchinchi bosqichga o‘tkaziladi. Aks holda to‘garaklarga faol qatnashish choralari ko‘riladi. Uchinchi bosqichda o‘quvchilarning ta‘lim platformalardan foydalanishga oid amaliy ko‘nikmalarini shakllantiriladi. Bunda o‘quvchilarga global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta‘lim muhitlaridan foydalanishga doir taklif tavsiyalar berib o‘tiladi. To‘rtinchi bosqichda o‘quvchilarga mobil ilovalardan foydalanib sodda ilovalar yaratish o‘rgatiladi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tuzilmani, ya‘ni o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan tuzilmani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilari jalb etilib, ular tajriba (45 nafar) va nazorat (46 nafar) sinflariga ajratildi. Tajriba sinfiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan tuzilma asosida darsdan tashqari o‘quv faoliyat tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat sinfi ajratilgan o‘quvchilarning tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari 1-jadval

1-jadval

O‘quvchilarning tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

Tajriba sinfi					Nazorat sinfi				
	5 (atlo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O‘quvchilarning umumiy soni	5 (atlo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
	9	22	12	2	46	7	14	21	4
	45								

Ushbu 1-jadvaldagi sonli ma‘lumotlarni o‘zlashtirish dinamikasini qiyida keltirilgan (2-rasmga qarang):



2-rasm. O‘quvchilarning tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari



Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan o'quvchilarning natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos

o'rtacha qiymatlar $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$, tarqoqlik koeffitsiyentlarini $D_n = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^4 n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}}$, o'zlashtirish

ko'rsatkichlarini aniqlashda esa $A \% = \frac{\bar{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3} \cdot 100\%$ formulalaridan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba sinfining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 10,8 % ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Shunday qilib, darsdan tashqari jarayonlarda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanish taklif etiladi. Chunki tuzilma o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida global tarmoqdan samarali foydalanishga qaratilganligi va turli elektron o'quv vositalardan foydalanishga hamda sodda loyihalar ishlab chiqishga yo'naltirishga qaratilganligi bilan muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSs) ilmiy darajasini olish ushun tayyorlangan dissertatsiya. - Navoiy, 2023. - 332 b.

2. Кирьякова Н. А. Влияние социальных сетей на развитие коммуникативных способностей подростков // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2017. - Т. 29. - С. 161-168. - URL: <http://ekoncept.ru/2017/770833.htm>.



BOLANI ILK YOSHIDAN BOSHLAB TEJAMKORLIK VA IQTISODIY TARBIYAGA O'RGATISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RNINI

DJ.K.FAZILOV,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti yetakchi ilmiy xodimi, p. f. n

Globallashuv jarayonida farzand tarbiyasi va uni hayotda o'z o'rnini topishi uchun tejamkorlikning ahamiyati beqiyos. Bolaning tarbiyasida jamiyatdagi axloqiy mezonlar ko'p jihatdan qonuniy yoki ma'muriy choralar bilan emas, balki jamoatchilik fikri, shaxsning xulq-atvorini baholash bilan belgilanadi. Bolalikdagi tarbiya, oilaviy muhit nazoratsiz xatti-harakatlar inson hayotida bir umr salbiy yoki ijobiy fe'l-atvorga aylanib, odat bo'lib qoladi va ularning ish faoliyatida ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning ma'naviy kamoloti, tejamkorligi uning kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi, bu masala ilmiy yechimlarini kutayotganligi tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, davlat, mahalla, ta'lim muassasasi, intellektual rivojlanish, tarbiya, ta'lim, xulq, individual, falsafa, odob, tadqiqot, ruhiyat, mafkura.*

В условиях глобализации значение бережливого воспитания ребёнка и его способности найти своё место в жизни является бесценным. В воспитании ребёнка нравственные критерии общества во многом определяются не столько законодательными или административными мерами, сколько общественным мнением и оценкой поведения личности. Воспитание, полученное в детстве, семейная среда и неконтролируемые формы поведения могут на всю жизнь сформировать у человека отрицательные или положительные качества и превратиться в привычку, влияющую на его профессиональную деятельность. Подчёркивается, что духовное совершенствование личности и её бережливость имеют важное значение для будущего человека, и эта проблема требует научного решения.

Ключевые слова: *семья, общество, государство, махалля, образовательное учреждение, интеллектуальное развитие, воспитание, образование, поведение, личность, философия, этикет, исследование, психика, мировоззрение*

In the process of globalization, the importance of frugality for a child's upbringing and their ability to find their place in life is invaluable. In a child's development, the moral standards of society are shaped not so much by legal or administrative measures, but by public opinion and the evaluation of an individual's behavior. Childhood upbringing, the family environment, and uncontrolled behaviors can turn into lifelong negative or positive character traits, becoming habits that influence a person's professional life. It is emphasized that an individual's spiritual development and frugality play an important role in their future, and this issue requires scientific analysis.

Key words: *family, society, state, mahalla (community), educational institution, intellectual development, upbringing, education, behavior, individual, philosophy, etiquette, research, psychology, ideology.*



Barchamizga ma'lumki qadimdan oilada farzand tug'ilishi bilan unga hayot maktabini o'rgatish, bolaga bilim berish bilan bir qatorda uning ongaiga oila va jamiyatdagi qadriyatlarini singdirish, biror bir kasb hunarni egallashi va hayotda o'z o'rni topishida, ota-ona va atrof-dagilarning o'rni katta maktab vazifasini o'tagan.

Ayniqsa bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayotimizda chetdan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat aksariyat holatlarda bolalarimiz ta'lim tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Bu esa oilada ulg'ayib voyaga yetayotgan har bir farzandning boshlang'ich bilim sirlarini egallashi, qaysidir hunarni o'rganishi, yoshligidan tejamkorlik va iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni egallashi, atrof-dagilar bilan o'zaro xushmuomala bo'lishi va o'zidan oldin o'tgan avlod tomonidan qoldirilgan oilaviy qadriyatlar va udumlarga amal qilib kelajak hayotini shakllantirishiga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda.

Mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrda «Umumiy ovqatlanish korxonalarida sodir bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 589-son qarori bilan tasdiqlangan «Oqilona iste'mol» («Save food») dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlangan.

Mazkur chora-tadbirlar rejasining 12-bandida, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda «Yosh avlodga oilaviy ro'zg'or sharoitida resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va uy xo'jaligini boshqarish asoslarini o'rgatish» bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish vazifasining yuklatilganligi, mazkur masalada har bir ta'lim muassasasi mutasaddilari oila bilan hamkorlikda bolaga ro'zg'or sharoitida mavjud resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va uy xo'jaligini boshqarish bo'yicha ko'rgazmali o'quv qurollari orqali treninglar o'tkazish masalasi alohida e'tibor markazida bo'lishini taqozo etadi.

Hozirgi zamonda yoshlarimiz har bir sohada juda katta yutuqlarga erishish bilan bir qatorda oilaviy qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar, ota-ona va buvi-buvalarning o'z harakatlari bilan bolaga berilgan axloqiy fazilatlarini egallashi lozimligiga panja orasidan qarab, bu masalaga o'ta e'tiborsizlik bilan qarashmoqda.

Azaldan o'zbek mahallarida tarbiyalangan bolalar bir-biriga inoqligi, to'y-marakalarni o'tkazishda hamjihatligi, oilalarda hashar yo'li bilan uy qurish, ekin ekish, yer-tomorqa ishlarida yordam berish va mahalladagi nochor oilalarga ko'maklashishdek savob ishlarni xuddi bir oila farzandlaridek birgalikda bajarishgan. Bu esa shu mahallada istiqomat qiladigan yoshlarni inoqlikka, mehr-oqibatga, bir-biriga nisbatan ishonch va do'stlik rishtalarini jipslashtirishga katta turtki bo'lgan. Shu sababli yoshligidan boshlab bu sharoitda o'sgan bolalar bir umr tengdoshlari va mahalladoshlar bir-biriga tayangan, qo'llab-quvvatlashgan.



Ming afsuski oxirgi 30-40 yillar mobaynida ba'zi bir uzoq qishloqlarda bu an'ana va udumlar qisman saqlangan bo'lsada, aksariyat holatlarda haddan tashqari zamonaviylashib borayotgan farzanlarimizda o'zbekona urf-odatlar va an'analar asta sekinlik bilan yo'qolib borayotgan ko'zga yaqqol tashlanayapti.

Shu o'rinda bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri yoshlarimizni tejamkorlikka va iqtisodiy tarbiyaga o'rgatishda oilaviy qadriyatlarining o'rni to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Bolalarimizni tejamkor va iqtisodiy tarbiyaga o'rgatishda bir hayotiy misolga e'tibor qaratishni joiz deb topdim.

Sentabr oyini oxirida mahallamizda barcha kommunal (suv, elektr energiyasi, gaz va issiq suv) to'lovlarni o'z muddatida to'lash bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda qarzdor bo'lgan oilalarning qarzdorligi ko'rsatilib tezroq to'lashlari so'raldi.

Uy boshqaruvchisi har bir xonadonda yashovchilarni qarzdorligini kamaytirish va kommunal to'lovga sarflanayotgan mablag'larni aytib o'tganda ikkita qo'shni bir oyda kommunal to'lovlarga sarflanayotgan mablag'lariga e'tiborimni qaratdim.

Uyimizdagi 22 xonadonda turuvchi Samejon aka bir oyda kommunal to'lovlarga 186 ming so'm, xuddi shu uyning 34 xonadonida yashovchi Mirmuhsin akani ushbu kommunal to'lovlariga sarflagan puli 76 ming 500 so'mni tashkil etgan. Eng qizig'i Samejon akani ham oilasida 4 nafar, Mirmuhsin akani oilasida ham 4 nafar odam yashaydi.

Shunda, ushbu majlisda uy boshqaruvchisi buning sababini Mirmuhsin akadan so'raganda, u kishi yig'ilish ishtirokchilariga suv, gaz va elektr energiyasidan foydalanganda ularni darrov o'chirib qo'yishi yoki bir xonada o'tirib ishlayotganda ikkinchi xonani chirog'ini yondirmasligini, ertalab yuz qo'l va tishlarini yuvishda, soqol olishda suvni oqizib qo'ymasligi, choy qaynatgandan keyin albatta gazni o'chirib qo'yishi va bu odatni farzandlariga ham o'rgatgani to'g'risida aytib berdi.

Oradan 6 oy o'tdi. Uy boshqaruvchisi pod'yezd va xonadonlar holati bilan tanishish maqsadida aylanib yurgan ekan, shunda bir qiziqib uyimiz to'lovlari haqida gaplashib qoldik.

Bilasizmi qo'shni keyingi 6 oy ichida avvalgiga nisbatan uyimiz uchun kommunal to'lovlar 32 foizga kamaydi. Men ham ishonmagandim. O'sha yig'ilishimizda Mirmuhsin aka juda bir ta'sirli so'zlar bilan uyimizga istiqomat qiladiganlarga «Farzandlarimizni tejamkor bo'lishi uchun eng avvalo o'zimiz o'mak bo'lishimiz va keyin ularga tejamkorlikning oila byudjetiga qanchalik foydaligi va davlatimiz kelgusidagi rivoji uchun, biz tejab qolgan tabiiy boyliklardan boshqa sohalarga foydasi tegishini» to'g'ri va aniq misollar bilan tushuntirganlari mana shuncha natijaga olib kelganligini aytdi.



Mana shu bo‘lib o‘tgan bir yig‘ilishning natijasida birgina bizning uyimizda istiqomat qiladigan 144 xonadonda bir nechcha million so‘m mablag‘ tejalishini inobatga olsak, farzandlarimizni tejamkorlikka o‘rgatish natijasida O‘zbekistonimizni iqtisodiga katta hissa qo‘shilishini tasavvur qilish qiyin emas.

Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash joizki ota-ona oilada har bir bolaga shaxs sifatida qarashi va unga o‘zbekona urf-odatlar, qadriyatlar, ota-bobolarimizni tarbiyaga oid so‘zlari, allomalarimizning qarashlari va hadis ilmi namoyandalarning o‘gitlarini o‘rgatishi muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birgalikda oilada ota-ona farzandiga qadriyatlarga tayangan holda tarbiya berish bilan bir qatorda bolani bilim olishi, voyaga yetgunga qadar har sohada hayotiy tajribaga ega bo‘lishi uchun o‘zi o‘rnak bo‘lishi va unga barcha sharoitlarni yaratishi asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Har bir oilada voyaga yetib ulg‘ayayotgan farzandlarimizga yoshligidanoq ota-onalar, ikkinchi tomondan ta’lim muassasalari mutasaddilari tejamkorlik tarbiyasini kunlik vazifasiga aylantirsa, bu nafaqat oila byudjeti balkim davlatimizni har jabhada moddiy boyliklarning behuda sarflanishini oldini olinishiga katta xizmat qilgan bo‘lar edi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrda «Umumiy ovqatlanish korxonalarida sodir bo‘ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 589-son qarori.

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 490-son Qarori, <https://lex.uz/docs/5550539>.

3. X.Ibraimov, M.Quronov, J.Fozilov, F.Zaripov «Ota-ona murabbiy» Ota-onalar uchun uslubiy-metodik qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi 2024 yil. O‘O‘K 37.018.11 KBK 74.90 O-86

4.Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-287574-1.html>

5.Avazova G. Yoshlarni asrash kelajakni asrash demakdir. Postda gazetasi. 2017-yil 21-oktabr. 43- son.

6.Axmedova L., Roziqova M. O‘sib kelayotgan avlodga psixologik ta’sir etuvchi zamonaviy tahdid va xavf-xatarlar. /Uslubiy qo‘llanma/ Toshkent-2019 yil.



ME'MORLIK OBIDALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA VATAN TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSI

N.R.BOTIROVA,

*Qoriy Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Mazkur maqolada me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari borasida fikrlar yuritilgan bo'lib, unda o'quvchilarni me'morlik obidalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish orqali ularda vatan tuyg'usini shakllantirish parametrlari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarix, vatan tuyog'usi, o'quvchi, vosita, jarayon, me'morlik, pedagogika, sifat, xususiyat.

В статье рассматриваются теоретико-педагогические основы формирования чувства патриотизма у студентов посредством использования памятников архитектуры, а также описываются параметры формирования чувства патриотизма у студентов посредством использования памятников архитектуры в образовательной практике.

Ключевые слова: образование, история, основа, патриотизм, студент, инструмент, процесс, архитектура, педагогика, качество, особенность.

This article discusses the theoretical and pedagogical foundations of developing a sense of patriotism in students through architectural monuments, and describes the parameters for forming a sense of patriotism in students through the application of architectural monuments to educational practice.

Key words: education, history, basis, patriotism, student, tool, process, architecture, pedagogy, quality, feature.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida O'zbekiston tarixini o'qitishda turli manbalar, xususan me'morlik obidalarida aks ettirilgan voqea va hodisalardagi tarixiy faktlarning talqini sifatida foydalanishi o'quvchilarda tarixiy bilimlarni samarali o'zlashtirishga o'ziga xos pedagogik qulaylik yaratadi [1]. Biroq, bu ta'limiy jarayon, tadbir muayyan ilmiy xulosalar asosida amalga oshirilishi lozim. Bu, o'z navbatida, maxsus pedagogik tadqiqot o'tkazishni talab etadi. Shu omil tanlangan mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi. Zero, yurtimizda me'moriy binolar jamiyat taraqqiyotiga monand tarzda, uning tarixiy talqini sifatida rivojlangan. Bu esa o'quvchilar ongida shu davrga oid tarixiy bilimlarni boyitish imkonini beradi. Shu bois ham tarixiy me'moriy binolar, qasrlar, ko'shklar, saroylar va qo'rg'onlar, shuningdek ularni ta'mirlash va rekonstruksiya qilingan tarixiy



obidalarini o'rganish o'quvchilarning tarixiy bilimlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida tadqiq etilishi lozimligi muammoning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'quvchilarda tarix fanini o'qitishda va bilim berishda me'morlik obidalari aks ettirilgan voqea va hodisalardagi tarixiy faktlarning talqini sifatida foydalanishi o'quvchilarda tarixiy bilimlarni samarali o'zlashtirishga o'ziga xos pedagogik qulaylik yaratadi [3]. Buning uchun esa yangicha pedagogik tafakkurni shakllantirishning faol shakllari bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim mazmunini milliy tamoyil asosida tuzilishini aniqlab olish zarur.

MDX davlatlar olimlari R.Allaberganov, A.A.Vagin, Z.T.Gasanov, M.A.Zinovyev, M.Ignatkina, I.Y.Lerner, R.M.Medetova, P.S.Leybengrub, va boshqalarning ishlarida tarix fanini o'qitish va uni takshil etish metodikalarini rivojlantirish borasida ilmiy ishlar olib boranganlar.

Tahlillarga ko'ra, me'morlik obidalariga oid materiallar vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmaganligini ta'kidlash mumkin. Shu o'rinda 8-9-sinflar O'zbekiston tarixi darslarida me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishning mazmuni va metodikasini hamda bu jarayonni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalar sirasiga kiradi [2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– mavzuga oid tarixiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni, me'moriy binolar va ularni o'rganish hamda O'zbekiston tarixi darslarida me'morlik obidalari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik talablarini aniqlash;

– me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik tizimini (mazmun, metodika hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi takomillashtirish;

– 8-9 sinflarning O'zbekiston tarixi darslarida foydalanish mumkin bo'lgan me'moriy binolarning katalogini tuzish;

– o'quvchilarda me'morlik obidalari vositasida vatan tuyg'usini rivojlantirish vositasida O'zbekiston tarixi ta'limi samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan vazifalar yechimini topish asnosida, O'zbekiston tarixi darslarida o'quvchilarda vatan tuyg'ularini rivojlantirishda me'morlik tarixi vositalaridan foydalanish, o'quvchi-yoshlarni O'zbekiston tarixiga bo'lgan qiziqishini orttiradi, o'quvchilarga tarixni o'qitish yo'llari, usul va metodlarini boyitadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlashga qulay didaktik sharoit yaratadi. Shuningdek, O'zbekiston me'moriy obidalarini umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilgan namunalarini bilan tanishtirish nafaqat o'quvchilarning tarixiy



bilimlarini oshiradi, balki ularda vatan, milliy g'urur kabi xislatlarini rivojlantiradi. Olingan natijalaridan umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix o'qituvchilarning amaliy faoliyatida, O'zbekiston tarixiga o'quvchilarda vatan tuyg'ularini rivojlantirishda me'morlik obidalarini vositalaridan foydalanishga oid metodik qo'llanma, didaktik materiallar yaratishda, pedagogik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari qurslarida foydalanish mumkin bo'ladi.

Keltirilgan manbalar tarix darslarida o'quvchilarda vatan tuyg'ularini rivojlantirishda me'morlik obidalaridan foydalanish tarix darslarini samarali o'qitishni ta'minlaydi. Zero, o'quvchilar o'tilayotgan mavzuda shu davrga oid me'moriy obidalar bilan tanishadilar. Ular ongida shu davrga oid bilimlar mustahkamlanadi, tarixga bo'lgan munosabatlar o'zgaradi va shu davrga oid tarixiy hodisa, voqea va faktlarni o'zlashtirish darajasi ortadi.

Izlanishlar natijasida 8-9-sinf o'quvchilarining tarixiy bilimlarini oshirishda me'morlik obidalariga oid materiallardan foydalanish vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini rivojlantirish quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy samaralarni beradi. Yani:

Birinchidan, 8-9-sinflarda O'zbekiston tarixini o'qitish yangi tarixiy ma'lumotlar bilan boyitiladi. Ikkinchidan, tarix darslarini me'moriy obidalarga oid tarixiy – illyustrativ materiallar bilan boyitilishi didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipi asosida ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Uchinchidan, me'moriy obidalar tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar, afsona va rivoyatlar tarix ta'limini qiziqarli kechishiga asos bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tarixi darslarida me'morlik obidalarini namunalardan foydalanish o'quvchilarda Vatan tuyg'usini tarbiyalashga kompleks yondashish imkonini beradi, ya'ni dissertatsiya ishi xulosalari asosida ishlab chiqilgan o'quvmetodik materiallardan nafaqat tarix darslarida, balki maktabdan tashqari ta'lim tizimidagi o'lkashunoslik va sayyohlik ishlari, shuningdek, viloyatlardagi o'lkashunoslik muzeylarining madaniy-ma'rifiy ishlarini o'quvchilarda Vatan tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirishni kuchaytirish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni.

2. Иброҳимов А. Биз ким ўзбеклар. - Т.: Шарқ, 2001.- 395 б.

3. Бернадский В.Н. Методические вопросы анализа проблемной ориентации научно-исследовательских и опытно-конструкторских подразделений / В. Н. Бернадский, В. В. Журавков, В. С. Михайлов. - Киев : ИЭС им. Е. О. Патона, 2003. - 32 с.



YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING TARIXIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA TAFAKKUR VA ONGNING O'ZARO BOG'LIQLIK MOHIYATI

D.F. SHADIBEKOVA,

Nizomiy nomidagi O'zMPU mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada tarixiy dunyoqarashni ong va tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi, uning rivojlanish jihatlari mazmuni, takomillashtiruvchi o'quv-ta'limiy vositalari asosida hosil bo'lgan amaliy ko'nikmalar sintezi, tarixiy konikmalarni hosil qilishda o'tmishga, bugunga va kelajakka munosabatlarini o'zgartirish, malakalarni ostitirishga oid olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Integrativ model, differensial aloqalar, tarixiy dunyoqarash, tarixiy voqea, integrativlik, tarixiy ong, tarixiy tafakkur, evolyutsion jarayon, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, tarixiy tushunchalar, xalq qabulxonalari, virtual qabulxonalar.*

This article presents and analyzes the scientific views of scientists on the relationship between historical worldview and consciousness and historical thinking, the content of its development aspects, the synthesis of practical skills formed on the basis of improving educational tools, changing attitudes to the past, present and future in the formation of historical skills, and the development of skills.

Key words: *Integrative model, differential relations, historical worldview, historical event, integrativity, historical consciousness, historical thinking, evolutionary process, self-awareness, self-development, historical concepts, public receptions, virtual receptions.*

В статье представлены и проанализированы научные взгляды учёных на взаимосвязь исторического мировоззрения и сознания с историческим мышлением, содержание аспектов его развития, синтез практических навыков, формируемых на основе совершенствования педагогических средств, изменение отношения к прошлому, настоящему и будущему в процессе формирования исторических навыков, а также развитие навыков.

Ключевые слова: *Интегративная модель, дифференциальные отношения, историческое мировоззрение, историческое событие, интегративность, историческое сознание, историческое мышление, эволюционный процесс, самосознание, саморазвитие, исторические концепции, публичные реценции, виртуальные реценции.*

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida integrativ model o'qitish jarayonini yanada rivoj toptirish, shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori bosqichga olib chiqish tarix fanini o'qitishning zamonaviy modelini yaratish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha o'quv dasturda ko'plab vazifalar belgilab berilgan: O'quv mashg'ulotlarda tarix



fanini o'qitishda kreativ mezonlarni ishlab chiqish, pedagogik mexanizmlarni yaratish zamonaviy o'quv jarayonlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha vazifalar o'quv meyoriy hujjatlarda o'z vazifasini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «bugun xalqimizning tafakkuri ham, dunyoqarashi ham, talab va ehtiyojlari ham butunlay o'zgardi. Odamlarimiz hamma narsaga ziyrak va teran nazar bilan qaramoqda». Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarni tarixiy dunyoqarashini rivojlantirish xalqimizni ma'naviy merosini rivojlantirishni o'rgatgan holda ularni teran fikrlashini o'stirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tafakkur – yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador, tahlil va sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir»[13]. «Tafakkur – individning voqelikni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayonidir». «Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida xissiy va aqliy bilish jarayonida xosil bo'ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir. Bilim muayyan sharoitda biron bir xodisa yoki narsani baxolashda qo'l keladi va aynan ana shu jarayonda dunyoqarashga aylanadi. Bunday baxo berish jarayonida mudom muayyan manfaatlar asos qilib olinadi. Shuning uchun ham ijtimoiy dunyoqarash turli ijtimoiy guruxlar manfaatlarini ifoda etadi, gohida ularni amalga oshirish uchun kurash maydoni bo'lib qoladi».

«Pedagogik atamalar lug'atida ilm hamda dunyoqarashga quyidagicha ta'rif beriladi:

Ilm- shaxsning o'qish, o'rganish va amaliy tajriba natijasida orttirgan bilimi».

«Dunyoqarash – ta'lim oluvchilarning dunyoga va insonning undagi o'rniga, o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi shuningdek, bu qarashlarga asoslangan e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari hisoblanadi».

«Zamonaviy sharoitda geosiyosiy jarayonlarning rivojlanishi, inson ongi va qalbi uchun mafkuraviy kurashlarning avj olayotganligi ularga qarama-qarshi tura olish vositasida modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida o'sib kelayotgan avlodda tarixiy tafakkurni rivojlantirish masalasini tadqiq etishni shart etib qo'yimoqda. G.I.Gerasimovning fikricha «inson dunyoqarashi metodologiyasida dunyoni bilishga va uni o'zgartirishga intilishi mazkur faoliyat nazariyasi va amaliyotida obyekt va subyektning o'zaro bir biriga aks ettirilishi tarixiy dunyoqarashga xosdir». Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda tarixiy dunyoqarashni o'zgartirish tarixiylikning



asosiy uslubiy tamoyillariga ongli yondashuvni o‘tmish g‘oyalari bilan bog‘lash pozitivistik predmetiga obyektiv, subyektiv bilish, loyihalash, o‘zgartirish va yaratish yo‘li bilan belgilanadi. Tarixiy dunyoqarash asosida tevarak atrofdagi dunyoni bilish, anglash ma‘lumotlarni umumlashtirish, tarixiylik bilan belgilanadigan maqsadlarga erishiladi. Ideal tasavvurlar bilan metodologik kelajakni loyihalashtirish uzviy bo‘g‘liq. Tarixiy dunyoqarashni rivojlantirish ilmiy dunyoqarashning bog‘liqligi o‘tmish kelajakni o‘zaro aloqadorligi hamjamiyatda tarixning zamonaviy metodologiyasi konsepsiyalarini ishlab chiqadigan, tarixiy voqelikni o‘rganish vositalarini yaratadigan va shu asosda tarixning haqiqiy yo‘nalishini qayta qurishga imkon beradigan nazariya sifatida qaraladi. Tarixiy dunyoqarashning rivojida metodologik asos muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur – inson tomonidan voqelikning bevosita hissiy idrok qilib bo‘lmaydigan obyektiv xususiyatlari, aloqalari va munosabatlari bilan ongli ravishda aks ettirilishini bildiradi. «Tarixiy tushunchalar tarixiy tafakkur manbaidir. Tarixiy tushunchalar ko‘lami jihatidan uch turga: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to‘planma tushunchalarga bo‘linadi».

Tarixiy dunyoqarash ong va tafakkur uyg‘unligida voqelikni o‘qib uning mazmunini aks ettirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Tarixiy dunyoqarash – rivojlanishida inson miyasidagi tarixiy voqea va hodisalar, voqeliklar va predmetlar bir butunlikda sintez qilinib, umumlashtiriladigan jarayon deyish mumkin.

«Dunyoqarash insonning tavarak atrofni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash – olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilish. Dunyoqarash – insonning olamni bir butun yoki turli tuman holda ko‘rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, tushunishi hamda unda o‘z-o‘rni va mavqei, munosabatini belgilovchi qarashlar, baholar, tamoyillar majmuasidan iborat murakkab tizimdir. Demak, dunyoqarash insonning nafaqat dunyo va o‘z-o‘zini anglash haqidagi bilimlar yig‘indisigina emas, balki dunyoni ma‘lum darajada tushunish bilan birga uni baholash usuli hamdir. «Dunyoqarash» ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘zida turli elementlarni birlashtiradi. Bu o‘rinda «dunyoqarash»ni «ijtimoiy ong» tushunchasi bilan solishtirsa tinglovchilarga tushunarli bo‘ladi, chunki ularning tuzilishida bir-biriga yaqinlik bor». «Tarixning mohiyati va mazmuni tarixiy dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lib, uning butun ko‘lami, obyektga munosabati va falsafiy va mantiqiy mushohadalarning qay darajada shakllanganligini anglash umuminsoniy yutuq yoki umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

«Dunyoqarash yaratilishi va tarixning ma‘nosi inson mohiyatining bir qismidir. Insonning mohiyati esa uning shaxs sifatida shakllanishi-da, inson yo‘qligida»[5].



Demak, tarixni o'rganish jarayonida shaxsning tarixiy dunyoqarashi shakllanishi bilan birga uning insoniy fazilatlarini ham shakllanadi, ya'ni u o'zini amalga oshiradi. Boshqacha aytganda, komil inson o'tmish, hozirgi va kelajak bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yaxlit va zaruriy ehtiyojdir.

Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi o'quv-ta'limiy vositalar sirasiga quyidagilar kiradi:

– o'quv dasturlari, o'quv darsliklari, o'quv-metodik, uslubiy qo'llanmalar, mashq va topshiriqlar to'plami; integrativlik asosida yaratilgan elektron resurslar, platformalar, didaktik ta'minotlar, fan mavzulariga oid taqdimotlar, multimediali ko'rgazmalar, illyustrativ mazmunga ega dars ishlanmalar.

Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishga o'tmishga, bugunga va kelajakka munosabatlarini o'zgartirish, muayyan yondashuvlarni takomillashtirish ularni aksiologik, akmeologik ko'nikmalarga ega ma'rifatli, komil inson qilib voyaga yetkazishga olib boradi. Ta'lim jarayoni subyektlarining yuqori darajadagi bilimlarni egallashi ziyoli, insonparvar, vatanparvar, ma'rifatli bo'lishi negizida adolatli, ma'rifatli jamiyat barpo etiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda tarixiy tafakkur va tarixiy ong bir butunlikda yaxlitlab o'qitish shuningdek, bugungi kunda oxirgi axborotlar bilan boyitish tarixiy meroslarni o'rganish uchun oxirgi adabiyotlar bilan tanitish ularning tayyorgarligini ta'minlash ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 9-jild. - T.: Sharq, 2010. - 82 b.
2. Behbudiy M. va boshqalar. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyandalari. - T.: Yangi asr avlodi, 2015. - 5 b
3. Биск И. Я. Методология истории. Иваново, 2007. 236 с.



OLIY O'QUV YURTI TALABALARINING ESTETIK DIDINI TARBIYALASHDA MILLIY KULOLCHILIK AN'ANALARI VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

J. BEGIJONOV,

Qori Niyozni nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi

Mazkur ilmiy maqolada oliy o'quv yurti talabalari estetik didini tarbiyalash jarayonida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanishning pedagogik, estetik va madaniy ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Milliy hunarmandchilikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kulolchilik san'atining tarixiy rivoji, badiiy-estetik imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy salohiyati ilmiy asosda yoritiladi. Talabalarda estetik idrok, badiiy tafakkur, ijodiy faollik va milliy o'zlikni anglashni shakllantirishda kulolchilik an'alarining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, estetik did, milliy hunarmandchilik, kulolchilik san'ati, oliy ta'lim, madaniy meros, badiiy tafakkur.

В данной научной статье глубоко анализируется педагогическое, эстетическое и культурное значение использования средств национальных гончарных традиций в процессе воспитания эстетического вкуса студентов вузов. Научно освещены историческое развитие гончарного искусства, его художественно-эстетические возможности и образовательный потенциал в образовательном процессе, являются одним из важных направлений национальных ремесел. Раскрыты специфические особенности гончарных традиций в формировании эстетического восприятия, художественного мышления, творческой деятельности и осознания национальной идентичности у студентов

Ключевые слова: эстетическое воспитание, эстетический вкус, национальные ремесла, гончарное искусство, высшее образование, культурное наследие, художественное мышление.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishini ta'minlash, ularni nafaqat kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis, balki yuksak ma'naviyat va estetik tafakkur egasi bo'lgan insonlar sifatida tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida madaniy qadriyatlar va estetik mezonlarning tezkor almashinuvi sharoitida yoshlarning estetik didini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki estetik did shaxsning borliqni idrok etish, go'zallikni anglash, san'at asarlarini baholash hamda hayotiy hodisalarga estetik munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Aynan shu jihatlar talabaning umumiy madaniy saviyasi, ma'naviy dunyosi va ijodiy tafakkuri rivojlanishida muhim o'rin tutadi.



Estetik tarbiya oliy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsda go'zallikni his etish, estetik qadriyatlarini anglash va ularga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan undan foydalaniladigan vositalarning mazmuni, milliylik darajasi va talabalarning yosh hamda psixologik xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy madaniyat va san'at namunalari, xususan, xalq hunarmandchiligi estetik tarbiyaning eng ta'sirchan va samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining boy madaniy merosi tarkibida milliy hunarmandchilik turlari alohida o'rin egallaydi. Ular asrlar davomida shakllangan bo'lib, xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi, hayot tarzi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shular orasida kulolchilik san'ati o'zining qadimiyligi, badiiy mukammalligi va estetik imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Kulolchilik buyumlarida shakl, rang, naqsh va ramziy mazmunning uyg'unligi mujassam bo'lib, ular talabalarda estetik idrok va didni shakllantirishda katta tarbiyaviy salohiyatga ega.

Kulolchilik san'ati insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi badiiy-amaliy faoliyat turlaridan biri bo'lib, u dastlab kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yuksak estetik va badiiy mazmunga ega san'at turiga aylangan. O'zbek kulolchilik san'ati ham ming yillar davomida rivojlanib, hududiy maktablar, uslubiy xususiyatlar va rang-barang bezak tizimlarini shakllantirgan. Rishton kulolchiligidagi ko'k va moviy ranglarning ustuvorligi, G'ijduvon buyumlaridagi iliq ranglar uyg'unligi, Xiva kulolchiligidagi murakkab naqshlar tizimi xalqning estetik qarashlari va badiiy didi bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy kulolchilik an'analari talabalarining estetik didini tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar ta'lim jarayonida mazkur san'at turidan samarali foydalanish imkonini beradi. Avvalo, kulolchilik san'ati ko'rgazmalilik xususiyatiga ega bo'lib, buyumlarning real shakli, ranglari va fakturasi talabalarda kuchli estetik taassurot uyg'otadi. Bu esa estetik idrokning faollashuviga, ranglar va shakllarni farqlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kulolchilik buyumlaridagi bezaklarning ramziy mazmuni talabalarining estetik tafakkurini chuqurlashtiradi, ularni badiiy tahlil qilishga undaydi. Estetik didni tarbiyalash jarayonida kulolchilik san'atining yana bir muhim jihati uning amaliy yo'naltirilganligidir. Talabalar kulolchilik jarayonida bevosita ishtirok etish orqali ijodiy faoliyatga jalb qilinadi. Loy bilan ishlash, shakl yaratish, bezak berish jarayonlari talabalarda nafaqat estetik didni, balki sabr-toqat, diqqat, mas'uliyat va ijodiy yondashuv kabi shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Amaliy faoliyat jarayonida talabalar estetik qarorlar qabul qilishga, o'z ishini baholashga va mukammallikka intilishga o'rganadilar.



Milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanishning muhim xususiyatlaridan biri – milliylik va tarixiylik omilidir. Kulolchilik buyumlari orqali talabalar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va estetik ideallari bilan tanishadilar. Bu jarayon talabalarda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Estetik didning milliy asosda rivojlanishi esa shaxsning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlarida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish estetik tarbiyani fanlararo integratsiya asosida tashkil etish imkonini beradi. Kulolchilik san'ati tasviriy san'at, tarix, madaniyatshunoslik, pedagogika va dizayn fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi mumkin. Bunday integratsiya talabalarning bilim doirasini kengaytiradi, ularning estetik tafakkurini kompleks rivojlantiradi va nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi.

Shuningdek, kulolchilik san'ati orqali estetik didni tarbiyalash jarayoni talabalarning hissiy sohasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ranglar uyg'unligi, shakllarning mutanosibligi va bezaklarning ritmi talabalarda estetik zavq uyg'otadi. Estetik zavq esa shaxsning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, estetik ehtiyojlarini rivojlantiradi va estetik faoliyatga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Bu holat estetik tarbiyaning barqaror va uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashganda yanada samarali bo'ladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, ijodiy topshiriqlar va ko'rgazmali taqdimotlar kulolchilik san'atining estetik imkoniyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini, estetik baholash ko'nikmalarini va ijodiy faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurti talabalari estetik didini tarbiyalashda milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, u shaxsning estetik madaniyatini, badiiy tafakkurini va milliy o'zligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kulolchilik san'ati orqali estetik tarbiyani tashkil etish talabalarning nafaqat san'atga, balki hayotga bo'lgan estetik munosabatini shakllantiradi. Mazkur jarayonni ilmiy asosda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish oliy ta'lim tizimida estetik tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Estetik tarbiya nazariyasi.
2. Qodirov B. O'zbek kulolchilik san'ati tarixi.
3. Islomov Z. Milliy hunarmandchilik va ta'lim.



O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK DIDI VA DIZAYNERLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

D.A. NORBUTAYEVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti tadqiqotchisi

Maqolada o'quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila bilan hamkorlikning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni, shakl va usullari tahlil qilingan. Shuningdek, ota-onalarning badiiy-estetik tarbiya jarayonidagi o'rni, ularning ijodiy faoliyatga jalb etilishi o'quvchilarning dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida asoslangan. Maqolada mahalliy va xorijiy pedagog-olimlarning ilmiy qarashlari asosida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy-estetik did, dizaynerlik ko'nikmalari, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya.

This article highlights the socio-pedagogical mechanisms of cooperation with the family in the development of students' artistic and aesthetic taste and design skills. The content, forms, and methods of cooperation between the educational institution and the family are analyzed. Also, the role of parents in the process of artistic and aesthetic education, their involvement in creative activity is substantiated as an important factor in the formation of students' design skills. The article provides practical recommendations based on the scientific views of domestic and foreign pedagogical scientists.

Key words: artistic and aesthetic taste, design skills, family and school cooperation, socio-pedagogical mechanisms, creative activity, aesthetic education.

Badiiy-estetik did – shaxsning san'at asarlari, atrof-muhit, me'moriy va dizayn obyektlarini idrok etish, baholash hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi.

Dizaynerlik ko'nikmalari esa o'quvchining estetik tasavvurlari asosida makon, buyum yoki vizual muhitni ongli ravishda loyihalash, bezash va takomillashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat hisoblanadi. Mazkur ko'nikmalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, badiiy-estetik did dizaynerlik faoliyatining nazariy-estetik asosini, dizaynerlik ko'nikmalari esa estetik didning amaliy ifodasini tashkil etadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan qaralganda, badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalari shaxsning faqat shaxsiy sifatleri emas, balki uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatida shakllanadigan kompleks kompetensiyalaridir. O'quvchi estetik qadriyatlarini oilada, maktabda va jamoatchilik muhitida kuzatadi, o'zlashtiradi va qayta ishlab, shaxsiy tajribasiga aylantiradi. Shu sababli, mazkur



jarayonni faqat dars doirasida emas, balki keng ijtimoiy-pedagogik muhitda tashkil etish zaruriyati yuzaga keladi.

Ijtimoiy pedagogika nazariyasida oila shaxs tarbiyasining eng muhim va uzluksiz ijtimoiy instituti sifatida e'tirof etiladi. Aynan oilada bolada go'zallik haqidagi dastlabki tasavvurlar, estetik ehtiyojlar, did va qadriyatlar shakllanadi. Uy muhiti, interyer dizayni, milliy bezaklar, ranglar uyg'unligi, ota-onalarning san'atga va estetikaga munosabati o'quvchining estetik dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, maktabda berilayotgan estetik ta'lim oila tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganda uning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Shu bois, o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini oila bilan hamkorlikda tashkil etish zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining muhim ijtimoiy-pedagogik zaruriyati sifatida namoyon bo'ladi.

Oila bilan hamkorlik estetik tarbiyani hayot bilan bog'laydi, o'quvchining dizaynerlik faoliyatini real ijtimoiy tajribaga aylantiradi. Masalan, uy jihozlarini tanlash, xonani bezash, milliy an'analar asosida buyumlar yaratish, oilaviy ijodiy loyihalarda ishtirok etish orqali o'quvchi dizayni nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayot ehtiyoji sifatida anglay boshlaydi. Bu esa dizaynerlik ko'nikmalarining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini samarali shakllantirish oila, maktab va jamoatchilik o'rtasidagi tizimli ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni talab etadi. Ushbu hamkorlik ijtimoiy pedagog tomonidan muvofiqlashtiriladigan va tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Mazkur mexanizmlarga quyidagilar kiradi: oila bilan maqsadli pedagogik muloqot, ota-onalarning estetik savodxonligini oshirish, oilaviy ijodiy faoliyatni rag'batlantirish, mahalla va madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda estetik tadbirlar tashkil etish, shuningdek, maktab va oilaning tarbiyaviy harakatlarini uyg'unlashtirish. Ushbu mexanizmlar o'quvchining estetik rivojini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribada (Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya ta'lim tizimlarida) estetik tarbiya va dizayn elementlari oila bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlarda oilaviy ijodiy loyihalar, maktabdan tashqari dizayn studiyalari, jamoatchilik asosida tashkil etilgan estetik makonlar orqali o'quvchilarning dizayn tafakkuri rivojlantiriladi. Ota-onalar tarbiyaviy jarayonning faol subyekti sifatida jalb etilib, bolalar bilan birgalikda estetik muammolarni hal qilishga undaladi.

Milliy tajribada esa badiiy-estetik tarbiya ko'proq maktab doirasida olib borilib, oilaning ushbu jarayondagi ishtiroki yetarli darajada tizimlashtirilmagan.



Shunga qaramasdan, milliy hunarmandchilik, amaliy san'at, milliy bezaklar va me'moriy an'analar o'quvchilarda dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun katta pedagogik salohiyatga ega. Mazkur salohiyatni oila bilan hamkorlikda pedagogik jarayonga integratsiyalash zarurati mavjud.

Badiiy-estetik did o'quvchining san'at asarlari, tabiat hodisalari, ijtimoiy muhit, me'moriy va dizayn obyektlariga nisbatan estetik mezonlar asosida ongli baho bera olish qobiliyatini ifodalaydi. U shaxsning go'zallikni sezish, idrok etish, solishtirish va tanqidiy baholash malakalarini o'z ichiga oladi. Estetik did o'quvchida tug'ma sifat sifatida emas, balki ijtimoiy tajriba, tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Aynan shu jihati bilan u ijtimoiy-pedagogik ta'sirga ochiq va boshqariladigan jarayon hisoblanadi.

Dizaynerlik ko'nikmalari esa badiiy-estetik didning amaliy ifodasi bo'lib, o'quvchining estetik tasavvurlari asosida ma'kon, buyum va vizual muhitni loyihalash, bezash hamda takomillashtirishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Dizaynerlik ko'nikmalari ranglar uyg'unligini his etish, shakl va funktsionallikni uyg'unlashtirish, kompozitsion echim topish, estetik va amaliy talablarni birlashtirish kabi malakalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar o'quvchining kundalik hayotida, oilaviy muhitda va jamoatchilik faoliyatida qo'llanilgandagina barqaror rivojlanadi.

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni kompleks xarakterga ega bo'lib, u bir necha tarkibiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Birinchidan, bu mazmun estetik bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Estetik bilimlar san'at turlari, dizayn asoslari, milliy va zamonaviy bezak an'analari, ranglar psixologiyasi, kompozitsiya va shakl qonuniyatlari haqidagi tushunchalardan iborat bo'lib, ular o'quvchining estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur bilimlar tasviriy san'at, texnologiya, adabiyot, tarix kabi fanlar mazmuni bilan uzviy bog'liq holda berilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mazmunning muhim tarkibiy qismi estetik munosabat hisoblanadi. Estetik munosabat o'quvchining atrof-muhitdagi go'zallik va nomutanosiblikni farqlay olishi, estetik qadriyatlarini qadrlashi va ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyasiga aylantirishi bilan ifodalanadi. Estetik munosabat faqat bilim asosida emas, balki his-tuyg'u, tajriba va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Shu bois, o'quvchilarning estetik munosabatini rivojlantirishda oila muhiti, undagi estetik tartib, madaniy muhit va ota-onaning shaxsiy namunalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Ijodiy faoliyat o'quvchining estetik bilim va munosabatlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Rasm chizish, maket tayyorlash, bezak buyumlari yaratish, uy yoki sinf xonasini estetik jihatdan tashkil etish kabi faoliyatlar o'quvchining dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda



samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur faoliyat oila bilan hamkorlikda tashkil etilganda esa uning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan, o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni faqat maktab ta'limi bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchi shaxsining estetik rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u oila, maktab va jamoatchilik muhitida parallel tarzda kechadi. Oila – estetik tajribaning birlamchi manbai, maktab – mazkur tajribani tizimlashtiruvchi va yo'naltiruvchi institut, jamoatchilik esa o'quvchining estetik faoliyatini keng ijtimoiy maydonga olib chiqadigan muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayon mazmunini aniqlashda milliy madaniyat va an'analar alohida e'tiborga olinishi zarur. Milliy hunarmandchilik, amaliy san'at, me'morchilik va bezak san'ati namunalari o'quvchilarda dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun boy manba hisoblanadi. Ularni oilaviy muhitda, ota-onalar bilan birgalikda o'rganish va amaliy faoliyatda qo'llash o'quvchilarda milliy estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy dizayn yo'nalishlari va global estetik tendensiyalar bilan tanishtirish o'quvchining estetik tafakkurini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila bilan hamkorlikning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasasi, oila va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlik o'quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik madaniyat va dizaynerlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur hamkorlikni tizimli va maqsadli ravishda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraimov X.I. Quronov M. «Umumiy pedagogika». - Toshkent: Shaffof, 2023.
2. Muslimov N.A. Kasbiy pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Qo'ysinov O.A. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. - Toshkent: Fan, 2010.
4. Rajabova M. Badiiy-estetik tarbiya asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Sayidaxmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003.
6. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.



TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA TADBIRKORLIK SOXASIGA OID BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

A.A.ABDURASHIDOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti professor v.b. (PhD)

Mazkur maqolada talabalarda tadbirkorlik soxasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali kelajakda aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiyotni yaxshilash bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirkorlikning tashkiliy shakllari, rivojlanishi va asosiy qoidalari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, milliy xunarmandchilik, ma'naviy salohiyat, yaratuvchanlik faoliyati.

В данной статье отражены организационные формы, развитие и основные правила предпринимательства в нашей стране в целях повышения благосостояния населения и улучшения экономики в будущем путем формирования знаний, умений и квалификации студентов в области предпринимательства.

Ключевые слова: экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, народные ремесла, духовный потенциал, творческая деятельность.

This article reflects the organizational forms, development and basic rules of entrepreneurship in our country in order to improve the welfare of the population and improve the economy in the future by developing students' knowledge, skills and qualifications in the field of entrepreneurship.

Key words: economics, small business, private entrepreneurship, folk crafts, spiritual potential, creative activity.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, aholining umumiy bandlegini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan eng dolzarb muammo-lardan biridir. Tadbirkorlikning bir turi hisoblangan milliy xunarmandchilikni kichik biznesning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati yanada oshib bormoqda, uning rivojlanishini rag'batlantirish, ayniqsa yoshlar orasida keng tadbiriq etish va qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish bugungi kundagi oliy ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

Uzlusiz ta'limda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan, milliy xunarmandchilikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning hamda o'rta mulkdorlar sinfini istiqbolli rivojlantirishning muhim omili sifatida, nafaqat, jamiyatning milliy va ma'naviy



salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi, balki milliy boylikni ko‘paytirish, iqtisodiyotni jahon tizimiga uyg‘unlashuvini hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Uzluksiz ta‘limda talabalarining tadbirkorlik soxasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali kelajakda aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiyotni yaxshilash bo‘yicha mamlakatimizda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun bizga eng avvalo iqtisodiy bilimlarni mukammal egallagan, tashabbuskor, g‘ayratli tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega kadrlar zarur. Bunday kadrlarni tayyorlashdek mas‘uliyatli vazifani hal etish oliy ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar zimmasiga yuklatiladi. Professor-o‘qituvchilar talabalarda iqtisodiy bilim, xususan, tadbirkorlikni nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, xalqning turmush sifati, aholi talabi hamda takliflari, harajat, jamg‘armalar, eksport va import darajasi, korxonada ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning hajmi kabi tushunchalarni o‘zlashtirishda ilmiy asoslangan ma‘lumotlar berishi hamda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini tahlil qilishi, ularni qiyosiy ifodalab beruvchi usul va vositalardan foydalanish taqozo etiladi. Uzluksiz ta‘lim tizimida talabalarda xunarmandchilik va tadbirkorlik asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishda innovatsion axborot texnologiyalarini, usul va vositalarini qo‘llalishning ahamiyati talabalar uchun mavjud tadbirkorlik haqidagi tushinchalar hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, aholining ijtimoiy farovonligini ta‘minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari bevosita tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati rivojiga qaratilayotgan e‘tibor ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash, davlat eksport salohiyatini oshirish, yangi ish O‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini hamda turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Tadbirkorlik bu – oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan tashabbuskorlik faoliyatlari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ular: – Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlan-tirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo‘lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya‘ni «Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi». Spuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilish



– davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to‘sqinlik qilish, deb baholanadi. Printsipial jihatdan g‘oyat muhim bo‘lgan bu pozitsiyamizni yana bir bor alohida ta’kidlab o‘tishni muhim va zarur deb hisoblayman, – deb aytib o‘tganlar. Yangi ish o‘rinlari tashkil etish, bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib qolmoqda.

Bozor – bu muayyan tovar yoki xizmatlarning sotuvchilari va xaridorlarini bir joyda birlashtiradigan har qanday institut yoki mexanizm. Bozor (inglizcha – market, ruscha – рынок) – tovarlar bilan pullarning harakatini ta’minlovchi ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi munosabatlar tizimidir. Demak, bozorda tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishdagi erkin munosabatlar amalga oshiriladi. Bozor tadbirkorlik sub’ektlarining erkin faoliyat olib borishlari uchun keng shart-sharoitlar yaratib, erkin raqobat muhitining, eksport va import imkoniyatlarining bozor qonuniyatlari asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi. Xo‘sh, «tadbirkor», «tadbirkorlik» tushunchalari qanday mazmunga ega va nimani anglatadi? Bu tushunchalarni birinchi bo‘lib XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo‘llagan. Uning fikricha, tadbirkor – tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi kishidir. Shu boisdan u yer va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boyluk manbai deb bilgan. Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha – предпринимательство) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir. R. Xakimov esa «tadbirkorlik ko‘nikmasi» tushunchasini quyidagicha sharhlaydi: iqtisodiy bilim asoslarini puxta o‘zlashtirish, xo‘jalik yuritish yoki boshqaruv sohasida ma’lum tajribalarga ega bo‘lish, yuzaga keluvchi muammolarni o‘z vaqtida va ijobiy hal etish, xo‘jasizlik, sustkashlik va moddiy mablag‘dan oqilona oydalanma bilmaslik kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha, mavjud imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish, istiqbolni ko‘ra olish, bozorda ustuvor o‘rin tutuvchi talab xususida yetarli darajada ma’lumot to‘play olish borasida orttirilgan muayyan tajriba. Muallifning fikricha, tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, mazkur jarayon «shaxsga iqtisodiy bilim asoslari xususidagi ma’lumotlarni berish, ularni xo‘jalikni yuritish yoki muayyan ishlab chiqarish jarayonini oqilona boshqarish, bu borada yuzaga keluvchi muammolarni o‘z vaqtida va ijobiy hal etish, mavjud imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish, istiqbolni ko‘ra olish, bozorda ustuvor o‘rin tutuvchi talab xususida yetarli darajada ma’lumot to‘play olish tajribalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni»ni ifodalaydi.

«O‘zbekiston Respublikasining – Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda tadbirkorlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi:



«Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir». Bu sohada fikr yuritgan olimlarimiz tadbirkorga nisbatan «uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, tashabbuskor inson» – degan ta‘rifni qo‘llashgan. Iqtisodchi olim V.SHepelevning fikricha, «tadbirkorlik – yaratuvchanlik faoliyati bo‘lib, u aholining to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan talabini qondirishning yangi imkoniyatlarini ishga solishga qaratilgan faoliyatdir». Demak, yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda, tadbirkorlik tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berishimiz mumkin: «Tadbirkorlik shaxsiy manfaatini qondirishga asoslangan, o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan hamda tavakkalchilik va tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshiradigan, boshqa ijtimoiy sub‘ektlar topshirig‘i bilan amalga oshiriladigan faoliyatdan farqli o‘laroq, yangilikka intiladigan shaxslarning tashabbuskor faoliyatidir». Tajribali tadbirkorlar bu majburiy talabni juda yaxshi tushunadilar va hozirgi va kelajakni moliyaviy majburiyatlarni hisobga olgan holda mablag‘ni boshqarish rejasini tuzadilar. Dastlabki paytlarda ko‘proq yaratishga harakat qilish juda yaxshi qadam. Haqiqatda esa biznes-rejani qadamma-qadam rivojlantirib borish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Kodirova F.R., Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T. «ISTIQLOL», 2006 y. O‘quv qo‘llanma.
2. Nazirova, G. M., and F. M. Raximova. «Metodologicheskie osnovy formirovaniya tvorcheskoy deyatel’nosti budущix pedagogov-vospitateley.» *Ekonomika i sotsium* 1-1 (104) (2023): 334-339.
3. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya Mixaylovna Burdina. «Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in uzbekistan.» *International Academic Research Journal Impact Factor 7.4 1.6* (2022): 112-118.
4. Raximova, F. M. «Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies.» *Ekonomika i sotsium* 1-1 (104) (2023): 54-57.
5. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzaxon. «Problems of development of creative abilities in preschoolers.» *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH KOMPONENTLARI

D. M. ELMURATOVA,
GDPI, «Boshlang'ich ta'lim metodikasi»
kafedrasi professori v.b, p.f.f.d (PhD)

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning motivatsion, kreativlik, texnologik komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlash komponentlari shakllantirish shart-sharoitlari, «innovatsion shok» tushunchasi va uning bosqichlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: *innobatsion foliyat, kasbiy faoliyat, motivatsion komponent, kreativlik komponenti, texnologik komponent, innovatsion shok, innovatsion jarayonlarni loyihalashtirish, pedagogik innovatsiya.*

This article covers the content of training future primary school teachers for innovative professional activities, the content of the motivational, creative, technological components of training future primary school teachers for innovative professional activities. Also, information is provided about the conditions for the formation of components of teacher training for pedagogical activity, the concept of "innovation shock" and its stages.

Key words: *innovation portfolio, professional activity, motivational component, creativity component, technological component, innovation shock, design of innovative processes, pedagogical innovation.*

В данной статье рассматривается содержание подготовки будущих учителей начальных классов к инновационной профессиональной деятельности, содержание мотивационного, творческого, технологического компонентов подготовки будущих учителей начальных классов к инновационной профессиональной деятельности. Также приводятся сведения об условиях формирования компонентов подготовки учителя к педагогической деятельности, понятии «инновационный шок» и его этапах.

Ключевые слова: *инновационный портфель, профессиональная деятельность, мотивационный компонент, компонент креативности, технологический компонент, инновационный шок, проектирование инновационных процессов, педагогическая инновация.*

Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarning kreativligi, kasbiy kome-



tentligi, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga molik. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion jarayonlarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash, o'quv faoliyati samaradorligini oshirish qonuniyatlari, didaktik tamoyillari, metodikasini takomillashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'limga tatbiq qilish zarurati izohlanadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi – bu mustaqil, maqsadga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich ravishda ehtiyojli-motivatsion soha asosida o'zining pedagogik vaziyatini o'zgartirishning barqarorligi va zarurligiga ko'ra turli usullar bilan loyihali obrazga erishish bo'yicha pedagogik shaxsiy faoliyat va unga tuzatishlar kiritishni amalga oshirishdan iborat[3].

O'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarligi tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional kabi 3 ta komponentiga tizimlashtirilgan. Bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini o'rganishning nazariy va metodologik asoslarini innovatsion xususiyatga ega bo'lgan innovatsion faoliyat tuzilishi bilan bog'liq. Innovatsion faoliyat tuzilishi o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning komponenti sifatida shakllantirish quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

– pedagogik niyatning yuzaga kelish vaqti (ma'lumki, pedagogda yuzaga keladigan har qanday niyat ham emas, balki biron-bir pedagogning muayyan rivojlanish darajasi, pedagogik muammoni to'g'ri idrok etish qobiliyatining darajasidagi pedagogik vaziyati bilan bog'liq bo'lgan);

– niyatni uning butun turli-tumanligida ishlab chiqish, o'qituvchining kreativ fikrlashni namoyon etish qobiliyati va mavjud variantlar o'rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni qisqa muddatlarda optimal hal etishning usullari, ehtimoliy yo'llarini taklif etishga bog'liq bo'lgan muayyan pedagogik muammo yechimining mumkin bo'lgan variantlarini taklif etish;

– pedagog niyatining amaliy ro'yobga chiqarish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan, niyatni faoliyatda amalga oshirish jarayonida pedagogning barqarorligi (ya'ni niyat va uni amalga oshirish o'rtasidagi, o'qituvchi faoliyatining mazmunli yoki protsessual, yoki natijali tomonlaridagi o'zgarishlar sababli yuzaga kelgan, muqarrar ziddiyatga qarshilik ko'rsatish qobiliyati to'g'risida gap bormoqda);

– dastlabki niyat (niyatning boshlanishi nuqtasi) va uni faoliyatda amalga oshirish (natijada, ifodalangan niyatning yakunlanish nuqtasi) o'rtasidagi aloqaning saqlanganligi, bunda natija niyatni amalga oshirishning yakunlanishi sifatida uning boshi bilan bog'liq



bo'lishi, niyat va natijaning mos tushishi yoki mos tushmasligi aloqaning saylanganligi darajasini ko'rsatadi va bir vaqtda ularning dinamik rivojlanishidagi farqlarni ko'rsatadi, bu esa niyatning faoliyatda sifat ko'rinishida amalga oshirish darajasi ko'rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lib, usiz barqaror hodisa sifatida tushuniladigan innovatsion faoliyat ifodala-nishi va belgilanishi mumkin emas;

– o'qituvchi niyatining saqlanganligi va barqarorligiga bog'liq ravishda niyatni amalga oshirish natijasi ifodalanganligi va o'quvchi niyatining saqlanganligi (uning o'quvchi tomonidan qabul qilinishi) va barqarorligi (uning faoliyatga aylanishi) bilan bog'liqligi imkoniyati – bunda o'qituvchi faoliyati o'quvchi faoliyati bilan aloqadorligining adekvatligi to'g'risida gap boradi;

– mazkur holatda biz innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligining ifodalanganligi va belgilanganligi yana bir barqaror ko'rsatkichi – o'qituvchining innovatsion jarayoni va o'quvchi ijodiy jarayonining aloqadorligi to'g'risida aytish mumkin.

Innovatsion faoliyat tuzilishining motivatsion komponenti pedagogning innovatsion faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyat tashqi rag'bat (moddiy taqdirlash, yuqori toifani egallash, xizmat zaruriyati va boshqalar), pedagogning o'zini tashqi motivlari yoki obro'-e'tibor qozonishga intilishga bo'lgan motivlari, kasbiy motivlar (o'qish va tarbiyalashga bo'lgan xohish, ta'lim oluvchilarni innovatsiyalarga yo'nalganligi va h.k.), o'z-o'zini amalga oshirish motivlari ta'sirida yuzaga keladi[8]. O'qituvchining innovatsion faoliyati sanab o'tilgan motivlardan birining yaqqol ustunligida izchil ravishda quyidagicha tarzda quriladi:

1. Innovatsiyalarni joriy etishning muayyan elementlari uchun moddiy mukofotlash bilan bog'liq tashqi rag'batlar. Bunday rag'batlarga yuqoriroq darajadagi, xususan, «Yil o'qituvchisi» tanlovidagi ishtiroki uchun mukofotlashlar, rag'batlantirishlar, mehnatning qoniqarli sharoitlari va ish tartibi, talablar va nazoratni kamaytirishni kiritish mumkin. Mazkur holatda o'qituvchining ishi bevosita kasbiy faoliyat natijalari bilan bog'liq. Maqsadga turli vositalar yordamida erishishda o'qituvchining tashqi motivatsiya bilan ishlashining o'ziga xos xususiyati u rasmiy nuqtai nazardan zarur va etarli ish hajmini bajaradi. U o'z mehnatining tashqi ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan. Malaka oshirishga deyarli intilmaydi, maktab ishidan ajralgan holda o'qishdan istisno holda, moddiy rag'batlantirish sohasidagi yo'qotishsiz va ish sharoitlaridagi sezilarli o'zgarishsiz, ishni o'zgartirish oson qabul qilinadi.

2. O'qituvchining o'z-o'zini ta'kidlash motivlari (atrodagilarning tashqi ijobiy



baholashlari orqali o‘z-o‘zini ta’kidlash). Bu holatda o‘qituvchi innovatsiyalarni uning mehnatiga ijtimoiy munosabat uchun kiritish bilan shug‘ullanadi. Mazkur motivni obro‘ motivi deb atash mumkin.

3. Kasbiy motiv. Yuqorida ko‘rib chiqilgan ikki motivlarning psixologik tabiati birinchi o‘rinda nokasbiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq, ikkinchisida – o‘z-o‘zini ta’kidlash motivi bilan bog‘liq maqsad, o‘z-o‘ziga bahoni oshirish bo‘lib xizmat qiladi, bu esa shaxs qulay psixologik holatining zaruriy sharti hisoblanadi. Kasbiy motiv ko‘proq umumiy ko‘rinishda bolalarni o‘qitish va tarbiyalash istagi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish motivlari. Qator tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, insonning «u bo‘lishi mumkin bo‘lgandek bo‘lishi»ga intilishidan iborat bo‘lgan o‘z-o‘zini faollashtirishga ehtiyoj potentsial ravishda barcha insonlarda mavjud bo‘ladi, ammo barchaning kasbiy faoliyatida ham va ayniqsa, ongli ravishda namoyon bo‘lavermaydi.

Kreativlik rivojlanishiga individning shaxsiy xususiyatlari, uning hissiy va motivatsion omillari katta ta’sir ko‘rsatadi. Kreativ insonlarni kreativ bo‘lmaganlardan farqlaydigan shaxsiy sifatlar o‘z-o‘ziga ishonish, tajovuzkorlik, o‘z-o‘zidan mamnunlik, ijtimoiy cheklovlarni va begonalar fikrini tan olmaslik hisoblanadi.

Kreativlikni o‘rganish milliy fanda keng taqdim etilgan. Ijodkorlik mezonlari ajratilgan, uning psixologik mexanizmlarini faol o‘rganish ishlari olib borilmoqda[4].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy xususiyati u kichik maktab o‘quvchisi shaxsini shakllantirish boshlang‘ich davrida amalga oshirilishi, atrof-olamni ilmiy bilishning dastlabki malakalarini shakllantirish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishlari bilan bog‘liqligi hisoblanadi. Mazkur yaxlit jarayonni tizimli tashkil etishda markaziy o‘rinni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya mazmunini tashuvchisi, o‘quvchi bilish faoliyatining, shaxsining har tomonlama rivojlanishi va shakllanishi tashkilotchisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

